**N.Abduraxmonova, M.Jumayev**

# 1-SINFDA MATEMATIKA DARSLARI

Evaluation

Toshkent-2008

**“Turon-iqbol”**

## DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR. NARSA, MIQDOR, O'RIN VA VAQTGA DOIR TASAWURLAR

**1-dars**

### MAVZU: JONAJON MAKTABIM

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchilarda «Jonajon maktab»ga mehr-muhabbat, matematika faniga qiziqish uyg'otish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarga yangi o'quv yili O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi bayrami kunidan boshlanishi haqida ma'lumot berish orqali Vatan tushunchalarini kengaytirish, o'z Vataniga muhabbatli boiishga, uni qadrlashga o'rgatish, ahillik, birodarlik ruhida tarbiyalash.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** o'quvchilarni bilimdon, zukko bo'lishga, «Jonajon maktab»ga muhabbat, Vatan haqidagi tushunchalarini boyitib borish.

**Darsning turi:** aralash, ertak, savol-javob, suhbat.

Evaluation

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) magnit taxtasi;
d) Vatan, jonajon maktab tasvirlangan mavzuga mos rasm.

**Darsning borishi:**

Darsni tashkil etish.

1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e'lon qilinganligi, shu bois har yili 1-sentabrda Mustaqillik bayrami nishonlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Ona Vatanimiz kundan kunga gullab, yashnab borayotganligi haqida suhbat o'tkaziladi.

Matematika kitobini varaqlab, birinchi sahifasida «Jonajon maktab» rasmi tasvirlanganligi haqida o'quvchilarga tushuncha beriladi. O'quvchilar xotirasida «Jonajon maktab» haqida yoqimli taassurot qoldirish uchun suhbatni «Sehrli saroy» ertagini aytib berish bilan boshlash mumkin.

«Bor ekan-da, yo'q ekan, qadim zamonda bir ona va uning bir o'g'ii bor ekan. O'g'ii yetti yoshga to'lganda onasi uni bir saroyga boshlab boribdi. Bu oddiy saroy emas, balki sehrli saroy ekan. Sehrli saroyning katta eshiklari bor ekan. Uning derazalari ko'p, xonalari yorug', yo'laklari uzun va chiroyli ekan. Shunda onasi o'g'liga: «Bolajonim, men seni ana shu saroyga olib keldim, sen bu saroyda 9 yil o'qiysan. Undan keyin esa, boshqa eshikdan chiqasan. O'g'lim katta bo'lganingda, chiroyli, aqlli va ko'p narsani biladigan dono bola bo'lasan».

— Bolalar, bu qanday saroy ekan-a?

— Bu jonajon maktab, ilm olish maskani. Sehrli saroyning ichkarirog'iga kirib borsak, bolalarning aqlini charxlovchi matematika faniga duch kelamiz. 1-sinf «Matematika» darslaridan sanashni, masala tuzib uni yechishni, turli xil shakllarni o'lchashni o'rganish ko'zda tutilgan. Matematika fanini o'rganishdan maqsad: to'g'ri va xatosiz hisoblashni bilish, zukko, bilimdon, topqir va komil inson bo'lib yetishishdir.

«Matematika» darsligi bilan tanishtirish, uni Prezidentimiz Islom Karimov sovg'a qilganligi haqida tushuncha berish ko'zlan-gan. O'quvchilar bu kitobni toza saqlashlari kerakligi, chunki undan juda ko'p bilimga ega bo'lishlari mumkinligi tushuntiriladi. Undan tashqari bu darslikni kimlar yozganligi haqida ma'lumot berish uchun o'qituvchi darslikni ochib, mualliflar yozilgan sahifa-ni ko'rsatib, o'quvchilarga o'qituvchining o'zi o'qib beradi, chunki hali o'quvchilar harf tanimaganlari uchun o'qishni bilmaydilar. Mualliflarning mehnatlari haqida qisqacha gapirib beradi.

— Endi darslikdagi rasmga e'tibor bilan qarang, so'ng ko'rganlaringizni aytib bering (matematika kitob, daftar, papka, rasm daftar, ruchka, qalam, qalamdon, chotka).

— Papka nima uchun kerak bo'ladi? (Papkaning ichiga o'quv qurollari solinadi).

— Matematika kitobi nima uchun kerak? Daftar-chi? (Kitob ilm olish uchun kerak bo'lsa, daftar esa o'rganganlarini yozish uchun kerak bo'ladi.)

— Rasm daftar nima uchun kerak bo'ladi? (Rasm daftar rasm chizish uchun kerak bo'ladi.)

Har bir narsaning o'z o'rni bor ekanligi haqida tushuncha berib borish joizdir. Buning uchun maktabga ilk qadam qo'ygan bolajonlarimizda jonajon maktabga mehr-muhabbat uyg'otish uchun mehribon ustozlar bor mahoratlarini ishga solishlari darkor.

Evaluation

Darsni yakimlash.

Hikoyaga xulosa yasab, quyidagilar haqida o'quvchilarni xabardor qilish mumkin: «Vatanni sevmoq iymondandir». Vatan so'zi yoniga ona so'zini qo'shib aytamiz, bu bilan Vatanni onaga qiyoslaymiz. Ona Vatanga mehr qo'yish jonajon maktabga mehr-muhabbat qo'yish bilan barobardir. Dars davomida faol qatnash-gan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa. Rasmga qarab hikoya tuzib kelish. Daftar 3-bet.

2-dars

## MAVZU: NARSALARNI KATTA-KICHIKLIGIGA KO'RA TAQQOSLASH. NARSALAR SANOG'I

Darsning maqsadi: O'quvchilarni narsalar, tovushlar va harakatlarni sanashga o'rgatish, hayotga bog'lash.

Darsning turi: Yangi mavzuni o'rganish. Suhbat.

Darsning jihozlanishi:

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) musiqa asboblari rasmlari, o'yinchoqlar, koptok, shar;
d) matematika daftari, rangli qalamlar, ruchka, qora qalam.

Darsning borishi:

Darsni tashkil etish.

Darslik bilan ishlash. O'quvchilarning e'tiborini darslikning 4-betidagi rasmga qaratib: «Unda nimalarni ko'rayapsiz?», — de-gan savol orqali yangi mavzu bilan tanishtiriladi.

— Bolajonlar darslikka yaxshilab qarang, qanday musiqa asboblarini ko'ryapsiz, ular qanday tovush chiqaradi? Shu haqida gapirib bering.

— Rasmda nimalarni ko'rayapsiz?

— Rasmda katta-kichikligi har xil bo'lgan koptoklar, sharlar bor. (Koptokni qo'llariga olib ushlab, aylantirib, sanatib ko'rish.)

— Katta koptoklar nechta? Sanab aytib bering.

— Katta koptoklar 3 ta.

— Kichik koptoklar nechta? Sanab aytib bering.

— Kichik koptoklar 3 ta.



Evaluation

Xuddi shunga o'xshab sharlarni katta-kichikligini taqqoslab sanatish mumkin. Shar ustida amaliy mashq. Uning o'pka uchun puflaganda foydasi borligi haqida suhbat o'tkazish.

— Katta shakldagi sharlar nechta ekan? Ularning rangi qanaqa?

— Kichik shakldagi sharlar nechta ekan? Sanab aytib bering.

— Katta shakldagi sharlar ko'p-mi, kichik shakldagi sharlar ko'p-mi? Taqqoslab aytib bering. Koptok va sharni qiyoslash.

— Kimning xonadonida bunday musiqa asboblari bor?

Darslikda berilgan musiqa asboblarining tovushi har xil ekanligi haqida gapirib beriladi. Ko'rinishini qiyoslash.

Bu musiqaning tovushini eshitgan bulbul ham sayrab yubordi deb, shoxdagi bulbullar rasmini ko'rsatish darkor. «Bolajonlar, bulbulning ovozini eshitganmisiz? U erta bahorda kelib, bog'larda sayrab, hammaning dilini xushnud etadi», — deb tushuncha beriladi.

**Daftar bilan ishlash.** Matematika daftari kataklardan iborat ekanligi va darslikning pastki qismida chizilgan shakl bilan tanish-tiriladi. «Uni daftarga chizish uchun biz ruchka ushlash qoidasini o'rganishimiz kerak». Ruchka ushlash uchun uch barmoq ishla-tilishi zarurligini ko'rsatib tushuntiriladi.

So'ng havoda yozib ko'rsatilgan shakl elementlarni daftarga yozib, ko'rsatib beriladi. Dars davomida yozishga qiynalgan o'quv-chilarning qo'lidan ushlab yozdiriladi.

Dam olish d a q i q a s i d a «Bosh barmoq» o'yini.

*Bosh barmoq maktabga boraman deydi,*
*Ko'rsatkich barmoq men ham qolmayman deydi,*
*O'rta barmoq qo'shiq aytaman deydi, Yordamchi*
*barmoq rasm solaman deydi, Kichkina barmoq*
*dono bo'laman deydi.*

— Yozilgan shaklga e'tibor bering, nima hosil bo'ldi?

— Bayroqchalar hosil bo'ldi.

Javob olingandan keyin, o'quvchilar diqqatini bayroqchalar-ning rangiga qaratish lozim.

**Darsni yakunlash.** Musiqa asboblari, ruchka ushlash qoida-lari, matematika daftari bilan tanishib chiqilganidan so'ng, o'quv-chilarning javoblari rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa. Daftarning 3-betidagi shakllardan yozib kelish.

Evaluation

**3-dars**

## MAVZU: BIR XIL, HAR XIL. UZUN-QISQA, BALAND-PAST

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

a) o'quvchilarni «Jonajon maktabim» mavzusi yuzasidan, «Narsalar sanog'i» haqida egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) o'quvchilarga turmushda uchraydigan bir xil, har xil, uzun-qisqa, baland-past bo'lgan narsalar haqida bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

O'quvchilarga dars berish jarayonida birodarlik, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalab borish.

**Darsning rivojlantiruvchi qismi:**

Darsning mohiyatini yoritishda o'quvchilar faolligini rivoj-lantirib borish. Hayotga bog'lash.

**Darsning turi:** aralash, savol-javob, suhbat.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) mavzuga oid didaktik materiallar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Narsalar sanog'i: bunda tovushlar, harakatlarni sanash haqida egallagan bilimlarini turli usuldan foydalangan holda mustahkamlab boriladi:

a) o'qituvchi bir maromda chapak chaladi, qaysi o'quvchidan so'rasa, o'sha o'quvchi chapaklar sonini aytib berishi lozim;

b) bir o'quvchi orqasini o'girib turadi, ikkinchi o'quvchi tovush chiqaradi, birinchi o'quvchi kimning ovozi ekanligini topib, no-mini aytadi;

d) hayvon, parrandalarning rasmini ko'rsatib, ularning nomlari-ni aytdirish, qanday ovoz chiqarishini o'quvchilardan so'rab aniqlash;

e) o'yinchoqlardan koptok, mashinadan qanday tovush chiqishi mumkinligini so'rab mustahkamlash mumkin.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

O'quvchilarning diqqatini, darslikning 5-betidagi rasmga qara-tib, suhbat o'tkaziladi.

Birinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz?

Evaluation

— Birinchi qatorda bir xil, har xii qalamlar, tasmalar bor ekan.

— Ularni taqqoslang, qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa ekanligini aytib bering.

— Qizil tasma uzun, ko'k rangdagi tasma esa qisqa. Qalamlar o'quv quroliga kirar ekan, yana qanday o'quv qurollarini bilasiz? deb o'quvchilarning flkrlari aniqlanadi.

Ikkinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz? Ularning rangi, qalin-yupqaligining har biri, hammasi deganda nimalarni ta'riflash mumkinligi aniqlanadi.

— Sochiqlar nechta? Ularning ranglari qanaqa, qalin-yupqaligi haqida nima deyish mumkin?

— Sochiqlar yashil, sariq rangda, yashil rangdagi sochiq sariq rangdagi sochiqqa qaraganda uzunroq yoki sariq rangdagi sochiq yashil rangdagi sochiqdan qisqa ekanligi hamda qalin-yupqaligi haqida tushincha berish.

— Sochiqning yon tomonida nimalarni ko'rayapsiz?

— Daraxtlar rasmi berilgan.

— Daraxtlarning qaysi biri baland yoki qaysi biri past ekanligini aytib bering.

— Sizning uyingizda qanday daraxtlar bor? Olma, nok...

— Siz daraxtlar necha turda bo'lishini bilasizmi?

— Ha. Mevali va mevasiz daraxtlar bor.

— Ularning inson hayoti uchun qanday foydasi bor?

— Mevali daraxtlar mevasi bilan, mevasiz daraxtlar soyasi bilan foyda keltiradi.

— Uchinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz?

— Koptoklar, kubiklar, sharlar — turli rangda bo'lishi bilan birga, ularning hajmi ham har xil ekanligi haqida tushuncha beriladi. Bu mavzuni yanada puxtaroq o'zlashtirib olish maqsadida «Nima o'zgardi» didaktik o'yinini o'tkazish mumkin. Bu o'yin quyidagicha o'tkaziladi: Stol ustiga har xil, bir xil rangdagi qo'g'irchoq, mashina, quyoncha, koptok kabi o'yinchoqlarni bir qator qilib terib qo'yiladi. So'ng o'qituvchi bunday deydi: «Diqqat bilan qarang-chi, qaysi o'yinchoqlar stol ustida turibdi, ular qanday joylashgan? Endi bir zumga ko'zingizni yuming, deb aytiladi. (O'qituvchi ikkita yonma-yon turgan o'yinchoqlaming o'rnini almashtirib qo'yadi.) Endi ko'zingizni oching, e'tibor bilan qarang-chi, nima o'zgardi?

O'quvchilar diqqat bilan qarab, qo'g'irchoq bilan quyonchaning o'rni almashib qolganligini aytadilar. Bu o'yinni geometrik shakllar bilan ham o'tkazish mumkin. Bu esa o'quvchilarni sezgir, zukko, bilimdon bo'lishga choilaydi.

Evaluation

Dam olish daqiqasini o'tkazish.
*Kulrang g'ozlar uchdilar, Ko 'Imakchaga qo 'ndilar, U yon, bu yon qarashib, Yana uchib ketdilar I, 2, 3...* **Daftar bilan ishlash.**

Darslikning pastki qismida chizilgan shaklni doskaga chizib ko'rsatish. So'ng bu belgilarni havoda yozib ko'rsatish, 3—4 marta takrorlangandan so'ng daftarda yozdirish. Dars davomida qiynal-gan o'quvchilarga yakka yordam berish.

**Darsni yakunlash.**

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** Daftarning 4-betidagi shakllarni yozib, rasmini bo'yab kelish.

**4-dars**

MAVZU: **HAR BIRI, HAMMASI, QOLGANLARI...**

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

a) o'quvchilarni bir xil, har xil, uzun, qisqa haqida egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) o'quvchilarga har biri, hammasi, qolganlari yuzasidan bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

a) dars mobaynida o'quvchilarning diqqatini, zukko, bilimdon bo'lish fazilatlarini tarbiyalash;

b) o'quvchilarning matematika faniga qiziqishini orttirish.

**Darsning rivojlantiruvchi qismi:**

O'quvchilarning fazoviy qobiliyatini rivojlantirish.

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob, o'yin.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»; d)
didaktik materiallar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.

Evaluation

2. O'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkam-lash maqsadida «Nima yashirindi?» o'yinini o'tkazish. O'yin qoi-dasi bilan tanishtiriladi. O'qituvchi stol ustiga har xil rangdagi turli mashina o'yinchoqlarini qator qilib terib qo'yadi. «Matiz», «Tiko», «Damas», «Jiguli» — so'ng, o'quvchilarga e'tibor bilan qarang-chi, nechta mashina turibdi? Ularning rangi qanaqa? Nomi nima? Yana qanaqa mashinalarni bilasiz? deb ularning fikrlari aniqlab olinadi. Bir zumga o'quvchilarning ko'zlari yumdiriladi (mashinalardan bittasini yashirib qo'yiladi). Endi ko'zingizni oching va nechta mashina yashirindi? Qaysinisi? Rangi qanaqa? Nomi nima? deb o'quvchilar javobi tinglanadi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi. Bu o'yinni piramida, raqamli kar-tochkalar, turli o'yinchoqlar, o'quv qurollari, sabzavotlar, mevalar, poliz ekinlarining maketlari bilan ham o'tkazish mumkin.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

O'quvchilar diqqatini darslikning 6-betidagi rasmga qaratish, so'ng og'zaki savol-javob orqali bilimlarini aniqlash.

Har bir kitob javonidagi kitoblar, har bir tokchasidagi kitoblar 'aqqoslanadi. Alohida turgan kitoblar soni, qalin-yupqaligi haqi-da tushuncha beriladi. Undan tashqari, kitoblar taxlangan kitob javonlarning har bir qatoridagi kitoblar ham bir-biri bilan taqqos-lab tushuntiriladi.

Ikkinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz?

— Sabzavotlardan nimalarni ko'rayapsiz?

— Sabzavotlardan sabzi, pomidor, piyoz bor, ularning shakli, rangi, mazasi ham har xil.

— Piyoz nimaga ishlatiladi?

— Hech bir ovqat piyozsiz pishmaydi, ovqat piyoz bilan mazali bo'ladi.

— Sabzavotlardan yana nimalarni bilasiz va ularning inson uchun qanday foydasi bor?

— Sabzavotlardan yana kartoshka, lavlagi bor, ularning inson hayoti uchun katta foydasi bor, ular vitaminlarga boy.

— Mevalardan nimalarni ko'rayapsiz? Ularning nomini, hajmini ta'riflab be ring.

— Mevalardan anor, nok, olmalar bor, ularning shakli, rangi, mazasi ham har xil. Anor qip-qizil, po'sti qalin, mazasi shirin, nordon, achchiq bo'lishi mumkin, nokning terisi anornikiga nisba-tan yupqa, rangi sariq, qizg'ish aralash boiishi mumkin, mazasi shirin, olmaning terisi ularnikidan yupqaroq, rangi qizil, yashii, sariq bo'lishi mumkin, mazasi shirin, nordon, achchiq bo'lishi mumkin.

Evaluation

— Mevalardan yana nimalarni bilasiz va ularning inson uchun qanday foydasi bor?

— Mevalardan yana behi, olxo'ri, o'rik va boshqalar bor, ularning inson hayoti uchun foydasi katta, ular vitaminlarga boy.

— Uchinchi qatorda nimalarni ko'rayapsiz?

— Geometrik shakllardan doirachalar berilgan, ularning hajmi, ranglari ham har xil. Qizil, sariq, yashil, ko'k rangli doirachalar berilgan.

— Bolalar nima qilishyapti? Ularga ism qo'yib gapirib bering.

— Karim bilan Salima piramidani ustma-ust taxlashyapti.

**Daftar bilan ishlash:**

— darslikning tagidagi katakchalarga joylashtirilgan belgilar bilan tanishtirish, uni doskada yozib ko'rsatish;

— shaklni havoda yozib ko'rsatish, bir necha marta havoda mashq qilish, so'ng daftarda yozdirish;

— dars davomida qiynalgan o'quvchilarga yakka yordam ko'r-satish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** Daftarga o'tilgan shakldan yozib kelish.

**5-dars**

## MAVZU: «... TA KO'P», «... TA KAM». KATTA, KICHIK, BARAVAR

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

a) o'quvchilarning har bir, hammasi, qolganlari mavzusi yuza-sidan egallagan bilimlarni boyitib borish;

b) o'quvchilarga «... ta ko'p», «... ta kam», katta, kichik, baravar mavzusi haqida bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

a) darsning mohiyatini yoritib berish jarayonida o'quvchilarda zukko, bilimdon, topqirlik fazilatlarini tarbiyalab borish;

b) o'quvchilarning matematika faniga qiziqishini orttirish.

**Darsning rivojlantiruvchi qismi:**

Mavzuni o'quvchilar ongiga yetkazib berish jarayonida ularning faolligini rivojlantirib borish.

Evaluation

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) mavzuga mos rasm;
e) didaktik materiallar;
f) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «0'ylab top!» o'yini o'tkazish. O'qituvchi bu o'yinning qoidasi bilan tanishtiradi. Buning uchun har bir o'quvchi partasining ustida darstaxta bo'ladi. Darstaxtaning ustida konvertga solingan sabzavotlar, mevalarning rasmi bo'ladi. O'quvchilarga shunday topshiriq beriladi: qog'oz sathiga kartochkalarni, ya'ni rasmlarni to'g'ri joylashtira olishi kerak. Buning uchun o'ng tomonga sabzavotlarni rasmi berilgan kartochkalarni, chap tomonga esa mevalar rasmi aks ettirilgan kartochkalarni ajratib joylashi kerak. O'ng tomonga: sabzi, kartoshka, piyoz, pomidor rasmini joylashtirsa, chap tomonga anor, nok, olma, behi, gilos rasmlarini qo'yishi darkor. Bu o'yin o'quvchilarni chapda, o'ngda, oldin, keyin, o'rtasida iboralarni o'z o'rnida ishlata olishiga yordam beradi. Undan tashqari har bir narsa, hammasi, qolganlari deganda nimani tasawur eta olishlarini tushunib yetadilar. Bu o'yinni o'quv qurollari bilan, geometrik shakllar bilan, turmushda ishlatiladigan idish-tovoqlar, qo'ying-chi hamma narsa bilan o'tkazish mumkin.

Evaluation

**Yangi mavzuni bayon etish.**

O'quvchilar diqqatini darslikning 7-betidagi rasmga qaratish.
Birinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz? Nomlarini aytib bering.

— Yaylovda sigir, qo'y, bolasi bilan o'tlab yuribdi.
— Sigir, qo'yning inson hayoti uchun qanday foydasi bor?
— Sigir, qo'ylarning inson salomatligi uchun katta foydasi bor. Bizga ular go'shti, yog'i, terisi, suti, qaymog'i bilan katta foyda keltiradi.

Ikkinchi qatordagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz?
— Tovuq jo'jalari bilan donlab yuribdi.
— Tovuq va jo'jalarning inson hayoti uchun qanday foydasi bor?

— Tovuq va jo'ja inson salomatligi uchun katta foyda keltiradi, uning go'shti, tuxumi inson uchun zarur mahsulot hisoblanadi.

— Kimning xonadonida qo'y-qo'zilar, sigir-buzoqlar, tovuq va jo'ja, ot bor? Ularni kim parvarish qiladi? Ular nima bilan oziqlantiriladi? degan savollarga to'liq javob olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

— Arilar necha turli bo'ladi?

— Asalarilardan nima olinadi? Asalning inson hayoti uchun qanday foydasi bor?

— Asalning inson hayoti uchun katta foydasi bor. Qadimgilar-ning bir so'zi bor: «Asal, asal yemasang kasal». Asal har qanday dardga davo ekanligini unutmasligimiz kerak.

— Bolajonlar, qanday geometrik shakllarni bilasiz? Darslikdagi kubiklar nechta ekan, sanang. Kubiklardan nimalar yasash mum-kin? degan savollarga o'quvchilardan to'liq javob olish darkor.

**Daftar bilan ishlash:**

a) o'quvchilarni daftarning 6-betidagi shaklning yozilishi bilan tanishtirish;

b) shaklni doskada yozib ko'rsatish;

d) shaklni havoda yozishni 3—4 marta mashq qilish;

e) dars davomida qiynalgan o'quvchilarga yakka yordam berish.

**Darsni yakunlash.**

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.**

«Matematika daftari»ning 6-betidagi shaklni yozib kelish.

Evaluation

**6-dars**

## MAVZU: ORTIQ (KO'P), KAM, TENG

**Darsning maqsadi:** Ortiq, ko'p, kam, teng, shuncha so'zlarining ma'nosini tushuntirish, hayotda bu so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olishga o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash, suhbat.

**Darsning jihozlanishi:**

a) didaktik materiallar;

b) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 0'quvchilarning katta, kichik, baravar tushunchalari haqida egallagan bilimlarini puxtalash.

— Bolajonlar, qarang, sinfimizdagi eshik kattami, deraza kattami? Yoki, qaysinisi kichik? Sinfimizda baravar narsalar bormi? Topib aytib bering. Har biringizning partangiz ustida turgan didaktik materiallardan baravar narsalarni ko'rsating va hokazo.

Dam olish d a q i q a s i :

*O'ng qo'limda besh barmoq,*
*Chap qo'limda besh barmoq,*
*Ikkalasi esh barmoq,*
*Har birining nomi bor,*
*O'z o 'rnida joyi bor,*
*Boshmaldoq, boshbarmoq,*
*O'rta terak, xo'ja merak,*
*Kenja buva,*
*Hammasi bo'lib,*
*O'n barmoq* — deb chapak chalinadi.

**Yangi mavzu ustida ishlash.** O'quvchilarga, ko'p, kam, ortiq, teng haqida tushuncha berish uchun, e'tiborni darslikning 8-betidagi rasmga qaratish lozim. Masalan:

O'quvchilarga quyidagicha topshiriq beriladi:

— (Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?) — Kitoblar ko'pmi, rasm daftar ko'pmi, qancha ko'p yoki qancha kam?

— Juft narsalardan nimalar bor, ular nechta?

Rasmga qarab quyidagicha savol-javob o'tkazish mumkin:

— Raqsga tushayotgan qizlar soni ko'pmi, o'g'il bolalar ko'pmi?

— Raqsga tushayotgan qizlar 3 ta, childirma chalayotgan o'g'il bola 1 ta. Qizlar o'g'il boladan ko'p ekan deb sanab aytib berishlari lozim. Yoki o'g'il bola qizlardan kam ekan.

Rasmdagi bolalarga ism qo'yib, suhbat o'tkazilsa chiroyliroq bo'ladi. Masalan: Dilshod childirma chalyapti, Gulnoza, Dilnoza, raqsga tushyapti, deb so'zlab berishlari kerak. O'quvchilarning musiqa faniga qiziqishlarini orttirish uchun o'qituvchi turli usullardan o'rinli foydalana bilishi darkor.

2 ta likopcha bor, uning birinchisida sabzavot, ikkinchisida esa, mevalar bor. Bolajonlarni har ikkala likopchadagi narsalarni taqqoslab, qaysi birida ko'p, qaysi birida kam narsa borligini aytib berishga o'rgatiladi. Shuningdek, ikkita likopchadagi sabzavotlardan qaysi birida nimadan nechta ortiq yoki kam ekanligini sanab, aytib berishlari so'raladi. «Uy-ro'zg'or anjomlaridan yana nimalarni bilasiz va ular qaysi vaqtlarda ishlatiladi?» deb so'rash mumkin.



Evaluation

O'quv qurollarini ham solishtirib, juft, ortiq, kam, teng, shuncha so'zlari ishtirokida og'zaki masala tuzishga o'rgatish mumkin.

**Daftar bilan ishlash.** «Darslikning pastki qismida qanday shakl chizilgan? Bu shaklning nomi nima uchun kvadrat deyiladi? Kvadratning to'rttala tomoni bir-biriga teng. Bu shaklning chizi-lishi havoda mashq qilinadi. Ruchka ushlash qoidasini eslatib, daftarga yozdiriladi. Shakl rangli qalam bilan bo'yaladi.

**Darsni yakunlash.**

**Uyga vazifa.** «Matematika daftari»ning 7-betidagi shakldan yozib kelish.

## 7-dars

### MAVZU: QANCHA BO'LSA, SHUNCHA

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish. Juft, kam, ortiq, teng degan iboralarni qay vaqt qo'llash mumkinligini ajrata olishlarini mustahkamlab borish;

b) o'quvchilarga «Qancha bo'lsa, shuncha» mavzusi ustida bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

a) o'quvchilarning matematika faniga qiziqishini orttirib borish.

b) mavzuning mohiyatini yoritib borishda «0'yla, izla, top!» o'yini orqali singdirish, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning diqqatini, tafakkurini, topqirligini tarbiyalab borish.

**Darsning rivojlantiruvchi qismi:**

Dars mobaynida o'quvchilarning faollik qobiliyatini rivojlantirib borish.

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob, o'yin.

**Darsning** jihozlanishi:

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) mavzuga mos rasm, didaktik materiallar;
e) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilarning diqqatini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «0'yla, izla, top!» o'yinini o'tkazish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishti-



Evaluation

radi. O'quvc hi laming har birini pa tasi ustida «Sanashni o'rgan» didaktik materiali bor. Bu idishning achida plastmassadan yasalgan raqamlar, geometrik shakllar bor. O'quvchilarga quyidagicha topshiriq beriladi:

— 4 ta doiracha, 3 ta kvadrat qo'ying, endi ularni taqqoslang: doirachalar ko'pmi, kvadratchalar ko'pmi, aytib bering.

— Doiracha kvadratdan 1 ta ortiq, kvadrat doirachadan 1 ta kam deb aytib beradilar.

— 5 ta to'rtburchak 6 ta uchburchak shakllarni qo'ying. Endi ayting-chi, to'rtburchak ko'pmi, uchburchak ko'pmi? O'quvchilar quyidagicha javob bersalar to'g'ri bo'ladi: to'rtburchak uchburchakdan 1 ta kam, uchburchak to'rtburchakdan 1 ta ortiq.

— Endi 3 ta tayoqcha qo'ying, tayoqcha qancha bo'lsa, o'shan-cha kubik qo'ying. Demak, 3 ta tayoqcha, 3 ta kubik bo'lsa, predmetlarimizni bir-biriga teng deb atar ekanmiz. Shunday qilib, o'tilgan mavzuni, ya'ni ko'p, kam, ortiq, teng iboralarini turli predmetlar, turli o'yinlar orqali o'quvchilar ongiga singdirish mumkin.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

O'quvchilar diqqatini darslikning 9-betidagi rasmga qaratish.
(Rasmda nimalarni ko'rayapsiz?) — Likopchada nimalarni ko'rayapsiz? Likopchada olxo'ri nechta ekan? Pomidor-chi?

— Likopchada o'lxo'ri 6 ta, pomidor esa 7 ta. (sanab aytib beradilar). 1 tasi olinsa teng bo'ladi. Darslikda 7 ta pomidor berilgan.

Demak, olxo'ri nechta bo'lsa, pomidor ham shuncha ekanligini sanab ko'rib iqror bo'ladilar.

— Gullarni ham sanab ko'ring-chi?

— Atirgul nechta bo'lsa, ko'k gul ham shunchaligini sanab aytib beradilar. 5 ta atirgul bo'lsa, ko'k gul ham shuncha.

— Yana qanaqa gullarni bilasiz? ...

— Tarvuz bilan qovunlarni ham taqqoslab aytib bering.

— Tarvuz 4 ta ekan, qovun ham shuncha, ya'ni 4 ta qovun bor ekan.

— Tarvuz bilan qovun nimalarga kiradi? Poliz ekiniga kirishini aytib bera olishlari kerak.

— Endi qarang-chi, qanaqa mashinalarni ko'rayapsiz? Mashinalardan qanaqalarini bilasiz? Nomlarini aytib bering.

— Qizil rangdagi mashina 3 ta, ko'k rangdagisi ham 3 ta. Demak, biz narsalarning hammasi qancha bo'lsa, shunchaligiga iqror bo'ldik.

Evaluation

— Endi izlab toping-chi: sinfdagi qaysi predmetlar qancha bo'lsa, shuncha ekan. O'quvchilarning o'zlariga ham xuddi shunga o'xshash masala tuzdirib, yechishga o'rgatamiz. Masalan: Nasibada 2 ta rasm daftar bor edi, o'rtog'i Nargizada ham 2 ta rasm daftar bor. Xulosa, Nasibada rasm daftar qancha bo'lsa, Nargizada ham shuncha ekan.

Daftar bilan ishlash.

1. O'quvchilarni darslikdagi shakl bilan tanishtiriladi, qanday hosil bo'lganini aytib berishlari kerak. Kvadratlardan naqsh tuzish mumkinligini bilib oladilar.
2. Daftarning 7-betidagi shakllarni yozilishini doskada ko'rsatib berish, uni havoda yozilishini mashq qilish.
3. Dars davomida qiynalgan o'quvchilarga yakka yordam berish.

Dam olish daqiqasi:

*Biz yozdik, biz yozdik*
*Qo'llarimiz dam olsin.*
*Chiroyli yoz, yozsang xat,*
*Chunki bu ham zo 'r san 'at.*

**Darsni** yakunlash.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Uyga vazifa. «Matematika daftari»ning 7-betidagi shaklni yozib kelish.

## 8-dars

MAVZU: YUQORIDA, PASTDA, CHAPDAN O'NGGA, O'NGDAN CHAPGA...

Darsning maqsadi: O'quvchilar ortiq, kam, ko'p, teng, shuncha iboralarining ma'nosini chuqurroq anglashlari uchun amaliy mashg'ulot o'tkazish. Yuqorida, pastda, chapdan o'ngga, o'ngdan chapga mavzusi haqida tushuncha berish.

**Darsning turi:** Suhbat, savol-javob, didaktik o'yinlar orqali yangi mavzuni o'rgatish.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi, daftari;
b) o'yinchoqlar;
d) sabzavotlar, mevalar maketi;
e) mavzuga oid sujetli rasmlar.

Evaluation

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'quvchilar o'tilgan mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida o'yinchoqlar, sabzavotlar, mevalar maketlari, o'quv qurollari yordamida savol-javob o'tkazish.

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

**Darslik bilan ishlash.** O'quvchilarga yuqorida, pastda, chapdan o'ngga, o'ngdan chapga so'zlari haqida tushuncha beriladi. O'quvchilar diqqatini darslikning 10-betidagi rasmga jalb qilib, suhbat o'tkaziladi. O'quvchilar ikkala rasmga qarab gapirib berishga o'rganadilar:

— Yuqoridagi rasmda nima tasvirlangan-, pastki rasmda-chi?

— Hovliga qo'yilgan karavotda kimlar o'tiribdi?

— Yuqori tomonda kimni ko'ryapsiz?

— Sizning uyingizda yuqorida kimlar o'tiradi, keyin kimlar o'tirishi kerak?

Ota-onalarning hurmatini joyiga qo'yish kerakligi haqida gapirib, mavzuning tarbiyaviy tomoniga ham ahamiyat beriladi. Pastki rasmda esa, yoz faslidagi bog' ko'rinishi tasvirlangan.

— Bog'da nimalarni ko'ryapsiz? Nimalar pishgan?

— O'quvchilar nima qilishmoqda? Ularga ism qo'yib, gapirib bering.

— Bolalar terilgan olmalarni nimalarga joylashtirayaptilar?

O'quvchilar og'zaki masala tuzib, yechishga o'rganadilar. Masala tuzishda ular, albatta, balandda, pastda, yuqorida, chapdan o'ngga, o'ngdan chapga so'zlarini o'z o'rnida ishlata olishlari kerak bo'ladi. Rasmga qarab suhbat o'tkazayotganda rasmdagi har bir bolaga ism qo'yib, mavzuga moslab so'zlab berishlari zarur bo'ladi. Yangi mavzuni o'quvchilar ongiga yetkazib berish har bir pedagogning ijodiy izlanishiga, mahoratiga bog'liqdir.

**Daftar bilan ishlash.**

Daftarning 8-betidagi shaklning "yozilishini ko'rsatib, fo'nd daftarida yozdirish.

**Darsni yakunlash.** Mavzuni umumlashtirish. Faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga** vazifa. Rasmga qarab hikoya tuzib kelish. «Matematika :Iaftari» 8-bet.

Evaluation

9-dars

## MAVZU: CHAPDA-O'NGDA, OLDIN, KEYIN, ORASIDA, YONIDA

Darsning maqsadi: Narsalaming o'zaro joylashuvidagi chapda-o'ngda, oldin, keyin, orasida, balandda, pastda, yuqorida, yonida kabi tushunchalar asosida o'quvchilarda sodda fazoviy tasawurlar-ni shakllantirish, fazoda moijal olishga o'rgatish.

Darsning **turi:** Aralash, suhbat.

Darsning jihozlanishi:

a) 1-sinf «Matematika» darsligi, daftari;
b) hayvonlarning maketi; d)
mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida turli amaliy mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. Masalan: «Teskarisini ayt» o'yinini o'tkazish mumkin. O'qituvchi balandda desa, o'quvchi pastda deb javob beradi; agar o'qituvchi ortiq desa, o'quvchi kam deydi; o'qi-tuvchi chapda desa, o'quvchi o'ngda deydi; o'qituvchi oldin desa, o'quvchi keyin deydi; o'qituvchi uzun desa, o'quvchi qisqa deb aytadi va hokazo. Shu tariqa o'yinni bir necha marta takrorlash mumkin.

Yangi mavzu ustida ishlash. O'quvchilarga oldida, orqasida, yonida, o'ngda, chapda iboralari haqida tushuncha berish uchun o'qituvchi o'quvchilardan bir nechtasini doska oldiga chiqarib:

— Qani, bolajonlar, rasmda nima tasvirlangan? Kimlarni ko'ryapsiz?

— Maktab kutubxonasi tasvirlangan, unda kutubxonachi va kitob olish uchun o'quvchilar kelishgan.

— Dilshodning yonida kim bor?

— Dilshodning yonida sinfdoshi Nafisa bor. Nafisaning o'ng qo'lida, Dilshodning esa chap qo'lida kitob bor.

O'quvchilarning o'zlaridan doska oldiga chiqarib, oldin, keyin orasida, yonida iboralarini ishlatgan holda suhbat o'tkazish mumkin.

**Darslik bilan ishlash.**

Darslikning 11-betidagi rasmga qarab bolalarning har biriga ism qo'ying va gapirib bering, deb o'quvchilarga murojaat etish mumkin. So'zlaganda mavzu mohiyatidan chetga chiqmaslik talab etiladi.

Evaluation

— Qaysi hayvonlarning rasmini ko'ryapsiz?

Bu savolga javob berayotganda o'quvchilar oldida olmaxon, quyon, orqasida tulki, yonida ayiq borligi haqida tasawur etib, hikoya qilishi lozim.

**Daftar bilan ishlash.**

O'quvchilarni darslikning 11-betidagi shakl bilan tanishtiriladi. Bu shaklni doskaga chizib ko'rsatiladi, tushuntiriladi. Daftarda yozish mashq qilinadi.

**Darsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** O'tilgan shakldan yozib, ularni bo'yab kelish. «Matematika daftari», 11-bet.

## 10-dars

### MAVZU: ERTALAB, **KUNDUZI, KECHQURUN. KECHA,** BUGUN, **ERTAGA...**

**Darsning maqsadi:** Fazoviy tasawurlarni mustahkamlash. Ertalab, kunduzi, kechqurun, kecha, bugun, ertaga kabi vaqt tushunchalari haqida ma'lumot berish. Vaqtga doir tasawurlarni shakllantirish.

**Darsning turi:** Aralash, suhbat, savol-javob.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi va daftari;
b) geometrik shakllar;
d) uy-ro'zg'or asboblariga doir o'yinchoqlar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun turli didaktik o'yinlar, topishmoqli o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, o'yinchoqlar, geometrik shakllar, idish-tovoqlar, o'quv qurollaridan foydalaniladi. Masalan: «Aksini top» o'yinida o'qituvchi oldida desa, o'quvchi orqasida deyishi kerak, o'qituvchi o'ngda desa, o'quvchi chapda deyishi kerak.

— Choynakning oldida nima bor?
— Piyolaning orqasida nima bor?
— Likopchaning yonida nima turibdi? — savollariga javob **olish** orqali mavzu mustahkamlab boriladi.

Evaluation

Yangi **mavzu** ustida ishlash.

**Darslik bilan ishlash.**

O'quvchilarga ertalab, kechqurun, kecha, ertaga, oldin, keyin kabi vaqt tushunchalari haqida ma'lumot berish uchun darslikning 12-betidagi rasmga qarab suhbat o'tkaziladi. Rasmdagi bolaga Davron deb ism qo'yib, ertalab soat nechada turdi? Keyin u nima qildi? Yuz-qo'lini yuvganidan keyin nima qildi? Maktabdan qa-chon qaytdi? Keyin u nima ish bilan shug'ullandi? Sizning kun tartibingiz qanday? — degan savollarga 3—4 o'quvchi javob beradi.

Shundan so'ng dam o l i s h d a q i q a s i o'tkaziladi:

*Derazamni ochaman, Toza*
*havo kirsin deb.*
*Badantarbiya qilaman,*
*Tanam kuchga to'lsin deb.*
*Bir, ikki, uch...*

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 63-betidagi vazifani bajarish.

Darslikning 12-betida berilgan shakl doskaga chizib ko'rsatiladi.

Geometrik shakllardan kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklar qanday joylashtirilgan? — degan savollar orqali suhbat o'tkaziladi. Bu shakl boshqa shakllarga qaraganda murakkabroq ekanligiga o'quv-chilar diqqati jalb qilinadi. Ruchka ushlash qoidasini eslatib, daftarda yozishni mashq qilinadi. O'quvchining kundalik faoliyatini bayon qilish bilan birga, daftarda berilgan soat, olma shakllarini chizish haqida tushuncha beriladi.

**Darsni yakunlash.** Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'-batlantirish.

Uyga vazifa. «Matematika daftari»ning 10-betida berilgan shaklni chizib kelish.

Evaluation

## BIR XONALI SONLAR

**il-dars**

### MAVZU: 1 SONI

**Darsning maqsadi:** Bir raqami va soni bilan tanishtirish. 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligi va narsalarni sanashni mashq qilish.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurini boyitish, pul muomalasi va odob-axloq madaniyatini shakllantirish. Iqtisodiy tarbiya berish, sotuvchi bilan oluvchi o'rtasidagi muomala madaniyatini o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi, daftari;
b) mavzuga mos rasmlar;
d) turli o'yinchoqlar;
e) geometrik shakllar;

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'quvchilarning nuqtalar va chiziqlardan qanday naqshlar tuzish mumkinligi haqidagi bilim-lari tekshirib ko'riladi.

**Yangi mavzu ustida** ishlash.

**Darslik bilan ishlash.** O'quvchilarning diqqatini darslikning 13-betidagi «0'yinchoq do'koni» rasmiga qaratiladi va quyidagi savollar beriladi:

— O'yinchoqlar do'konida nimalar bor?

— Siz ko'proq qaysi o'yinchoqni yaxshi ko'rasiz?

— O'yinchoqlar do'konida kimlarni va qanday o'yinchoqlarni ko'rayapsiz? Do'konda kim nima sotib olayotgani haqida gapirib bering.

— «Koptoklar nechta? Ayiqcha~chi?» — deb savol-javob o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi parta ustidagi didaktik materiallardan turli rangdagi geometrik shakllardan bittadan olib berishlarini aytadi. Shu tarzda 1 soni bilan tanishtiriladi.

1. 1-misol og'zaki bajariladi. O'quvchilar o'yinchoqlarning nomini va nechtadan ekanligini ko'rib, aytib berishlari kerak.

*Javob:* Bitta raketa, bitta ayiqcha, bitta toycha, bitta traktor o'yinchog'i bor.

2. 2-misolda esa, o'quvchilar rasmga qarab uy hayvonlaridan 1 ta sigir, 1 ta qo'y, 1 ta echki, 1 ta it va 1 ta mushuk borligini aytib beradilar. Bir raqami bilan tanishtiriladi.

3. O'qituvchi «koinotga uchamiz» deb, o'quvchilarga 1 dan 10 gacha sanashlarini aytadi. O'quvchilar koinotga uchishini «tasawur» qiladilar. So'ng «Endi bizga pastdan qo'ng'iroq qilishdi,

Evaluation

yerga qo'namiz», — deb 10 dan 1 gacha teskari sanash mashqini o'tkazadi.

**Daftar bilan ishlash. 1** raqamining yozilishi bilan tanishtiriladi. Qalam, olma, pufak, likopcha rasmlari bo'yaladi. Daftar katak-larida yozuv mashqini mustaqil davom ettirish orqali 1 sonining bosma va yozma shakllarini yozish malakalari mustahkamlanadi.

**Darsni yakunlash.** Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'-batlantirish.

Uyga vazifa. 1 sonidan to'rt qator yozib kelish. «Matematika daftari», 11-bet.

**12—13-darslar**

## MAVZU: 2 SONI

**Darsning maqsadi.** 2 soni bilan tanishtirish, «>», «<», « = » belgilari haqida tushuncha berish. **Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) raqamli kartochkalar;
e) mavzuga mos rasmlar (mushuk, gullar, jo'ja rasmi).

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar ketma-ketligini to'g'ri va teskari tartibda sanash, buning uchun «Zanjir bo'lib sanash» o'yinini tashkil etish.

2. 1 soni haqidagi bilimlari she'riy misralar yordamida mustah-kamlanadi.

*Men oldinda turaman,*
*Chizg'ichingga qarab boq.*
*Tartib sonlar ichida,*
*Birinchiman, hoy o'rtoq.*

**Yangi mavzu ustida ishlash.** O'quvchilarga 2 soni qaysi sondan keyin kelayotganligi haqida tushuncha beriladi. Bunda ularning fikrlash

Evaluation

qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. 1 dan lOgacha bo'lgan sonlar ketma-ketligini to'g'ri va teskari sanash mashqi takrorlanadi. 2 soni 1 dan keyin kelishi tushuntiriladi.

Darslik **bilan ishlash.**

O'quvchilarning diqqatini oldin darslikning 14-beti, so'ng 15-betidagi rasmlarga qaratiladi va savol-javob orqali 2 soni haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

— 1-misolda qaysi raqamni ko'rayapsiz? Nechta koptok, nechta olma bor ekan?

*?— 2* ta koptok, 2 ta olma bor.

— Geometrik shakllardan nimalarni ko'rayapsiz? Ular nechtadan, ranglari qanaqa?

— 2 ta doiracha, 2 ta kvadrat bor.

Katta, kichik, teng belgilari bilan tanishtiriladi, bu belgilar ishtirokida amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Lola bilan guUar bir-biriga teng ekanligini ko'rsatib tushuntiriladi. Gullarni taqqoslab tushuntiriladi. Futbol o'ynayotgan bolalarga qarab masala tuzdirishga o'rgatish.

Nechta mushukning rasmini ko'rayapsiz? Rangi qanaqa? Kimning uyida mushuk bor? Mushuk qanday hayvon? Qanday foyda keltiradi? 1 ta mushuk ko'pmi, 2 ta mushuk ko'pmi? 2 raqami bilan tanishtiriladi. 2 soni 2 soniga teng ekanligi bunday yoziladi: 2 = 2; 1 soni 2 dan kichik u bunday yoziladi: 1 < 2; 2 soni 1 dan katta ekanligi bunday yoziladi: 2 > 1 deb tushuntiriladi.

**Daftar bilan ishlash.** a) 2 raqamining yozilishi bilan tanishtirish. Narsalarni bo'yash va sanash orqali 2 raqamini hosil qilish va yozish, shuningdek, «katta», «kichik» belgilarini doskada yozib ko'rsatish;

b) havoda yozib ko'rsatish, so'ng daftarda yozishni mashq qilish.

Darsni **yakunlash.**

Tartibli, chiroyli yozgan o'quvchilarni rag'batlantirish. Uyga vazifa. 2 sonidan yozib kelish. She'rni yodlash.
«Matematika daftari», 12-bet.

Evaluation

**14— 15-darslar**

---------------------------

**MAVZU: 3 SONI**

**Darsning maqsadi. 1**, 2 soni haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash, 3 soni bikn tanishtirish va yozishga o'rgatish. **Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) o'yinchoqlar;
b) raqamli kartochkalar;
d) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

a) stol ustiga ayiqcha, quyoncha, o'rdakcha o'yinchoqlarini qo'yib sanash, 1 dan keyin qaysi son keladi? 2 dan keyin-chi? Geometrik shakllardan parta ustiga qo'yib sanash; b) she'riy iboralar bilan 2 soni haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

*Qomatimni ko 'rganlar,*
*Qiyos etar oqqushga.*
*Mendan dir-dir titraydi,*
*Ixlosi yo 'q o 'qishga.* **Yangi mavzu ustida ishlash.**

Partaga 2 ta qizil gul va 1 ta sariq gul qo'yiladi. Hamma gullar soni sanaladi, so'ng 2 sonidan keyin 3 soni kelishi va uning tarkibi bilan tanishtiriladi. 3 soni 2 dan oldin kelmasligi, 2 sonidan keyin kelishi turli predmetlar yordamida tushuntiriladi.

**Darslik bilan ishlash.**

1. O'quvchilar e'tiborini darslikning 16, 17-betidagi mavzuga qaratish. Dastlab, 3 soni va uning tarkibi bilan tanishtiriladi, so'ng rasmga qarab savol-javob uyushtiriladi.

— Nechta piyola, nechta choynak rasmini ko'rayapsiz?

— 3 ta piyola, 3 ta choynak rasmi tasvirlangan. Uy-ro'zg'or asboblaridan yana nimalarni bilasiz?

— Kosa, lagan, qoshiq, taqsimcha... 2. 2-misolda esa nimalarni ko'rayapsiz? — Shkafning birinchi tokchasida nechta, 2, 3-tokchasida nech-tadan qo'g'irchoq bor? Sanab aytib bering.

3. 3-misolda esa nimalarning rasmining ko'rayapsiz, ularni qayerlarda uchratgansiz? deb bilimlari mustahkamlanadi. Xuddi shunga o'xshab 17-betdagi rasmlarga qarab, 3 soni haqida egallagan bilimlari mustahkamlanadi. Qizil, sariq, yashil doirachalar nimani eslatayapti? Svetofor qayerlarda bo'ladi? Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish zarurligi uqtiriladi.

3-misolda esa sonlarni taqqoslashga oid misollar bajariladi.



Evaluation

**Darsni yakunlash.**

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilami rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 3 sonidan yozib kelish. «Matematika daftari», 13-bet.

## 16-17-18-darslar

MAVZU:

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| + - | 5 | + = | » | - = |

**Darsning maqsadi:** O'quvchilami 1, 2, 3 soni haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash, + -, + = , - = belgilari bilan tanish-tirish va yozishga o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) raqamli kartochkalar, darstaxta;
b) geornetrik shakllar; d)
o'yinchoqlar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Stol ustiga qizil rangdagi olmalardan 3 ta, sariq yoki yashil rangdagi olmalardan 2 ta qo'yib, ularni taqqoslashga o'rgatiladi. Ya'ni 3>2, 2<3 ekanligini ko'rib, o'quvchilar narsalarning miq-dori haqida xulosa chiqarishga o'rganadilar.

**Darslik bilan ishlash.**

Darslikning 18,19,20-betlaridagi rasmlarga qarab, suhbat o'tka-zish jarayonida o'quvchilarning matematik belgilar, amal ishoralari (qo'shish, ayirish) haqida egallagan bilimlari mustahkamlab boriladi.

Evaluation

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

«+» bu belgini qo'shish, «—» bu belgini esa ayirish deb atalishi haqida tushuncha beriladi. Masalan: 2 ta yashil doirachaga 1 ta qizil doirachani qo'shsa, 3 ta doiracha hosil bo'lar ekan. Rasmga qarab masala tuzib, uni yechishga o'rgatiladi. Ya'ni suvda 1 ta o'rdak suzib yurgan edi, uning yoniga yana 1 ta o'rdak kelib qo'shilsa, o'rdaklarning soni nechta bo'ldi? 2 ta o'rdak kelib qo'shilsa-chi?

Bu esa bunday yoziladi: 1 + 2 = 3 ta o'rdak.

Xulosa. 3 soni ichida qo'shish va ayirishga doir quyidagi qoidani keltirib chiqarish mumkin:

1+1=2 2+1=3 1+2=3

2-1=1 3 - 1 = 2 3-2=1

Dam olish d a q i q a s i d a «G'ozlar» o'yini o'ynatiladi.

*Kulrang g'ozlar uchdilar, Maydonchaga qo 'ndilar, U yon, bu yon qarashib, Yana uchib ketdilar.*

**Daftar bilan ishlash.**

3 sonining yozilishini mashq qilish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi mustahkamlanadi. Arifmetik amallar bajarishning yozuv qoidalari mustahkamlanadi.

1. 3 sonini doskada yozib ko'rsatish.
2. 3 sonini havoda yozib ko'rsatish, so'ng daftarga yozdirish.
3. Bo'sh kataklar o'rnini to'ldirishga o'rgatish. 2+1 = 3 3 - 1 = 2

Daftarning 14-betida berilgan 1, 2, 3 sonlarining yozilishini mustahkamlash, 3 soni ichida misol yechishga o'rgatish, rasmlarini bo'yash.

**Darsni yakunlash.** Dars jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 3 sonidan yozib kelish. «Matematika daftari», 14, 15-betlar.

**<u>19-20-darslar</u>**

## MAVZU: 4 SONI

**Darsning maqsadi:** 1, 2, 3 soni haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash, 4 sonining hosil bo'lishi, yozilishi va 4 soni ichida misollar yechishga o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi, daftar;
b) geometrik shakllar;
d) sanoq cho'plari.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.



Evaluation

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1 va 2, 2 va 3 sonlarini taqqoslash. 1 soni 2 dan 1 ta kam, shuning uchun 1 < 2; 2 soni 3 dan 1 ta kam yoki 3 soni 2 dan 1 ta ortiq 2 < 3, 3 > 2 kabi tushunchalami singdirib borish.

3. Quyidagi misralar yordamida 3 soni haqidagi bilimlarni mustahkamlash mumkin.

*Bilimingni baholab, Noiloj*
*qoniqaman. Qachon o'tar*
*mendan deb, Ko'z tikib*
*toliqaman.*

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

1. Idishdan 3 ta ko'k, 1 ta qizil qalam olib, hammasi nechta bo'lishini ko'rsatish. Sonlar ketma-ketligining o'sib borish tartibida (1, 2, 3, 4) va kamayib borish tartibida (4, 3, 2, 1) «zanjir» bo'lib sanash.

2. O'quvchilar diqqatini darslikdagi rasmlarga jalb qilib, shoxda 3 ta qush o'tirgani, yana 1 ta qush kelib qo'shilsa, nechta bo'lishini hisoblash (3 + 1=4). Gullarga qarab masala tuzish. Vazadagi gullar nechta, rangiga qarab og'zaki masala tuzishga va yechishga o'rgatish.

2 + 2 = 4 (ta gul).

2-misolda esa rasmga qarab suhbat o'tkazish. O'rdaklar 4 ta ekanligiga iqror bo'lishga o'rgatish.

3. O'quvchilar bu mavzuni puxtaroq egallashlari uchun «Hush-yor bo'l» yoki «+ », «-» deb atalgan didaktik o'yinni o'tkazish mumkin. Bu o'yin quyidagicha o'tkaziladi: quyon bilan bo'rining maketini magnitli taxtachaga yopishtiriladi, ularni qo'llaridagi kartochkalarda bir nechta misollar yozilgan bo'ladi.

| | |
|---|---|
| 1 D 1 = 2 | 2 D 2 = 4 |
| 2 ? 1 = 3 | 3 ? 1 = 4 |

Quyon misollarning javobini birinchi bo'lib topib, «+», «-» ishoralarini qo'yib, qochib qoladi, bo'ri esa har galgidek, «Seni-mi, shoshmay tur!» deb orqasidan qarab qoladi. Quyon bu misol-larni to'g'ri bajarish maqsadida o'quvchilardan yordam so'rab bajaradi-da, qochib qoladi, bo'ri esa nima qilish kerakligini bilolmay turgan edi, quyon bolalardan foydalanganligini sezib qoladi, so'ng u ham bolalardan yordam so'rab, misolni yechadi. Bolajonlar, ko'rdingizmi? Quyon hushyor bo'lganligi uchun misollarni birinchi bo'lib bajardi, bo'ri esa orqada qoldi.

O'quvchilami darslikning 22-betidagi rasmga qaratish. Dalada 3 ta paxta terish mashinasi bor edi, unga yana 1 ta paxta terish mashinasi

Evaluation

Kelib qo'shilsa, mashinalaming hammasi nechta bo'ldi? Ana shunday rasmga qarab masala tuzib, uni yechishga o'rgatib boriladi. 3 ta paxta terish mashinasi bor edi, unga yana 1 ta paxta terish mashinasi qo'-shilsa, hamma mashinaiar 4 ta bo'ladi. Agar ulardan 1 tasi ishini tugatib, daladan chiqib ketsa, dalada nechta mashina qoladi?

Demak:

3+1=4 ta,4-1 = 3 ta paxta terish mashinasi.

**Daftar bilan ishlash.**

4 sonining yozilishi bilan tanishtirish, uni havoda yozib ko'rsatish.

4 sonining yozilishini mashq qilish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi mustahkamlanadi. Arifmetik amallar bajarishning yozuv qoidalari mustahkamlanadi.

**Darsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchi-larni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 4 sonidan yozib kelish. «Matematika daftari» 16-bet.

**21—22-dars**

## MAVZU: 4 SONI ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISH

**Darsning maqsadi:**

a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish;

b) 4 soni ichida qo'shish va ayirishga doir misol, masala yechish.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) mavzuga mos rasm, sonli kartochkalar;
e) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «+» plus, «-» minus o'yinini o'tkazish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanish-tiradi. Magnit taxtachaga bo'lining maketi yopishtirilgan bo'lib, uning qo'lida bir nechta misol yozilgan varaqa bor. Bu misollar quyidagicha:

Evaluation

2...1 = 3 3...1 = 4 2...2 = 4

3...2=1 4...1 = 3 3...2=1

Bolajonlar, bo'ri misolni yecholmay hayron bo'lib turibdi, keling biz bo'rivoyga yordamlashib yuboramiz. Siz nuqtalar o'rniga « + » yoki «-» ishoralarini qo'yganingizda javobi to'g'ri kelsin. Demak, misollar quyidagicha bajarilsa, natija to'g'ri bo'ladi.

2+1=3 3 + 1 = 4 2+2=4

3-2=1 4 - 1 = 3 3-2=1

2. O'quvchilarga 1 dan 4 gacha, 4 dan 1 gacha og'zaki sanatdirish.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'quvchilar e'tiborini darslikning 23-betidagi mavzuga qaratish.

1-misol rasmga qarab suhbat o'tkazish, bolalarga ism qo'yib, gapirib berishga o'rgatish.

— Anvar bilan Alisher nima qilayapti?

— Anvar bilan Alisher koptok o'ynayapti.

— Salim bilan Karim nima o'ynayapti?

— Salim bilan Karim mashina o'yinchoq o'ynashyapti.

— Rasmga e'tibor bilan qarang-chi, hammasi bo'lib nechta bola o'ynamoqda. Demak, 2 o'quvchi koptok o'ynayotgan bo'lsa, 2 o'quvchi mashina o'yinchoq o'ynayotgan ekan. O'ynayotgan bolalarning soni 4 ta ekan. 2 + 2 = 4.

2. 2-misolda esa bo'sh kataklarga sonlar qo'yib o'qitiladi.

mam H HDDQ

Evaluation

Demak, 4 soni ichida to'g'ri va teskari sanashga o'rgatish ko'zlanganligi ma'lum bo'ldi.

Demak, 4 bu 3 bilan 1 ning yig'indisi, 4 bu 1 bilan 3 ning yig'indisi, 4 bu 2 bilan 2 ning yig'indisi yoki buni quyidagicha izohlash mumkin: 4 = 3 + l ; 4 - l + 3 ; 4 = 2 + 2 so'ng 4-1=3; 4-2 = 2; 4-3=1 kabi misollarni bajarilishi haqida ma'lumot beriladi.

3+1=4 1 + 3 = 4 2+2=4

1) Darslikning 24-betidagi rasmda naqqoshlik san'ati tasvir-langan. Unda ustozi bilan birgalikda ish yuritayotgan o'quvchilar haqida hikoya qilinadi. Bu san'atga qiziquvchan o'quvchilar boriigi

aniqlanadi va ularga to'g'ri yo'llanma beriladi. Naqqoshlik har bjr xonadonda alohida fayz berishi haqida hikoya qilinadi.

2) 2-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish.

3) 3-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish.

4 ta doirachadan 2 tasi chizilgan bo'lsa, chizilmagan nechta doiracha qoldi? Albatta, o'z-o'zidan ma'lumki, chizilmagan doira-chalar 2 ta qoldi, bu quyidagicha aniqlandi:

OO00 «-»-»

2+2=4 1 + 3 = 4

4-2=2 4 - 3 = 1

4) 4-masalada esa rasmga qarab og'zaki masala tuzdirishga o'rgatiladi.

I 4-1=3 4 - 2 = 2 4-3=1 I

**Darsni yakunlash.**

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**Uyga vazifa.** Daftardan 17-betdagi vazifani bajarish.

23—**24-darslar**

**MAVZU: 5 SONI**

**Darsning maqsadi:** 1,2,3,4 sonlari haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash, 5 soni haqida tushuncha berish, og'zaki masala tuzishga va misollar yechishga o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning** jihozlanishi:

a) sonli kartochka;
b) mavzuga mos rasmlar;
d) o'yinchoqlar;
e) magnit taxtacha.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Koptok o'yinini» °'tkazish.

Evaluation

O'qituvchi o'quvchilarga koptokii uzatib, 2 desa, o'quvchi 2 sonidan keyin kelgan sonni aytadi; o'qituvchi 3 deb koptokni uzatsa, o'quvchi koptokni ilib olib, 4 deyishi kerak. Shu tariqa o'yinni 3—4 marta takrorlash mumkin.

Istalgan sondan boshlab to'g'ri va teskari sanashni mustahkamlash. Sonlarni taqqoslashga oid mashg'ulot o'tkazish. «4 ta bodring ko'pmi, 2 ta bodring ko'pmi?» Qancha ko'p yoki kam-ligini sanash orqali aniqlash.

O'tilgan raqamlarni doskada yozdirib, mashq qildirish. Quyidagi she'rni yodlash:

*To'nkarilgan stulga,*
*O'xshab ketar bo'y-bastim,*
*Otim yaxshi to'rtta harf,*
*Uchdan keyinman do'stim.*

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

1. Sonlar ketma-ketligini o'sib borish tartibida (1, 2, 3, 4) va kamayib borish tartibida (4, 3, 2, 1) zanjir bo'lib sanash. 4 sonidan so'ng 5 soni kelishini, beshta birning qo'shilishidan 5 hosil bo'li-shini tushuntirish. Darslikning 25-betidagi rasmga qarab misollar yechishga o'rgatish.

a) 1 dan 5 gacha to'g'ri va teskari sanash;

0 0 0 00 |T] [T] [T] |T] |T|

Evaluation

b) bu sonlarni taqqoslang deganda 1 soni 2 dan 1 ta kam; 2 soni 1 sonidan 1 ta ortiq; 2 soni 3 sonidan 1 ta kam; 3 soni 2 sonidan 1 ta ortiq; 3 soni 4 sonidan 1 ta kam; 4 soni 3 sonidan 1 ta ortiq; 4 soni 5 sonidan 1 ta kam; 5 soni 4 sonidan 1 ta ortiq ekanligini aytib bera olishlari kerak. Bu sonlarning ketma-ket tartibli aniqlangach, tarkibini ham oydinlashtirib olish zarur. Masalan: «5» soni.

5 bu, bitta 4 bilan bitta 1 ning yig'indisi yoki teskarisi — 1 bilan 4;

5 bu, bitta 3 bilan bitta 2 ning yig'indisi yoki teskarisi — 2 bilan 3;

5 bu, beshta 1 ning yig'indisidan iborat ekanligini o'yinchoqlar, geometrik shakllar yordamida tushuntirish.

— 3 ta kaptar bor edi, 2 ta kaptar kelib qo'shilsa, nechta kaptar bo'ladi?

2. 5 sonining kelib chiqish usullarini o'rgatish.

_- 4 ta g'oz yoniga yana 1ta g'oz kelib qo'shilgan bo'lsa, hamma p'ozlar nechta bo'ladi?

*Javob:* 4 + 1 = 5 ta g'oz bo'ldi.

9-misolda aylanma harakatga doir misollarning o'qilishi va yozilishi haqida ma'lumot beriladi. Masalan: 1 bilan 3 ning yig'indisi — 4; 4 bilan 1 ning yig'indisi — 5; 5 bilan 3 ning ayirmasi — 2; 2 bilan 1 ning yig'indisi — 3; 3 bilan 2 ning ayirmasi 1 deb, 5 soni ichida egallagan bilimlari mustahkamlanadi.




**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 18-betidagi 5 soni yozilishini mashq qilish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini arifmetik amallar orqali mustahkamlash. Daftardagi rasmlarni bo'yicha vazifalarini mustaqil bajarish uchun o'quvchilarga havola etiladi.

Bo'sh kataklarda mustaqil topshiriqlar bajariladi.

**Darsni yakunlash.**

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 5 raqamidan yozib kelish.

Evaluation

**25—26-darslar**

## MAVZU: 5 SONI ICHIDA QO'SHISH

**Darsning maqsadi:**

a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini puxtalab borish;

b) 5 soni ichida misol, masala yechish.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;

b) 1-sinf «Matematika daftari»;

d) sonli kartochka;
e) sharlarning rasmi, uning har birida misollar yozilgan bo'ladi;
f) magnit taxtacha.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Sharlar yorildi» o'yinini o'tkazish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishti-radi. Kartondan yasalgan sharlar magnit taxtachaga yopishtirilgan bo'ladi. O'quvchilardan chiqarib, sharlardan bittasini olishini aytadi. Undagi misolni o'qib, javobini topish kerakligi tushun-tiriladi. Agar javob to'g'ri topilsa, shar yorilgan bo'ladi. O'yin shu tariqa bir necha marta takrorlanadi.



| 2 + 3 = ? | 2 + 2 = ? | 3 + 2 = ? | 4+ 1 = ? |
|---|---|---|---|

Dam olish d a q i q a s i n i o'tkazish: *Ikki go'lda nechta barmoq? Kel sanaylik, jon o'rtoq. Bir, ikki, uch, to'rt, besh... J ami qancha, do'stim yech?*

Evaluation

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'quvchilar e'tiborini darslikning 27, 28-betlaridagi mav-zuga qaratish.

Rasmga qarab og'zaki masala tuzdirib, yechish.

Yaylovda 2 ta ot bor edi, uning yoniga yana 3 ta ot kelib qo'shilsa, hamma otlar nechta bo'ladi?

Demak, 2 + 3 = 5 ta ot bo'ladi. Agar 3 ta otga 2 ta ot kelib qo'shilsa ham 5 ta ot hosil bo'lar ekan.

2-misolda esa guldagi misollarni bajaramiz.



1 bilan 1 ning yig'indisi 2 bo'ladi; 4 bilan 1 ning yig'indisi 5 bo'ladi; 3 bilan 1 ning yig'indisi 4 bo'ladi; 2 bilan 1 ning yig'indisi 3 bo'ladi deb tushuntiramiz.

3. 3-misolni og'zaki bajarish.

**2,**
**3**
**4**
— + 1

5

4

3

**-2**




Bu misollar quyidagicha ta'riflanadi:

a) 1 bilan 2 ning yig'indisi 3 bo'ladi; 3 bilan 2 ning yig'indisi 5; 2 bilan 2 ning yig'indisi 4 bo'ladi;

b) 4 bilan 2 ning ayirmasi 2; 5 bilan 2 ning ayirmasi 3; 3 bilan 2 ning ayirmasi 1 ga teng ekan.

4-misolni og'zaki bajaramiz.

| | |
|---|---|
| 3 + D | D + 2 |
| VSC | |
| 2 + D | D + i |

| | |
|---|---|
| 4 + D | ID + 3 |
| XD | |
| n+4 | 2 + D |

Evaluation

4 hosil qilish uchun 2 bilan 2 ning yig'indisi, 3 bilan 1 ning yig'indisi deb olish mumkin. Demak, bo'sh kataklarning o'rniga son qo'yib bajarish kerakligi tushuntiriladi.

Xulosa. 4 bilan 1 ning yig'indisi ham 5; 3 bilan 2 ning yig'indisi ham 5; 2 bilan 3 ning yig'indisi ham 5 ekanligi tushuntiriladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4+1 = 5 | 1+4 = 5 | 3 + 2 = 5 | **2 + 3 = 5** |

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 19-betidagi topshiriqni bajarish.

**Darsni yakunlash.**

Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni yozib kelish.

**27-28-darslar**

## MAVZU: 5 SONI ICHIDA AYIRISH

**Darsning maqsadi:**

a) o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlab borish, 5 soni ichida qo'shishni puxtalash;

b) 5 soni ichida ayirish haqida bilim berish.

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob, o'yin.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;

b) 1-sinf «Matematika daftari»;

d) mavzuga mos rasm, sonli kartochkalar;

e) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida

a) kartochkalar yordamida savol-javob uyushtirish

| 4+ 1 = ? | 3+2=? 2+3=? 2+2=? 1+4=? |

Misollarning o'qilishi, yozilishi haqida egallagan bilimlarini mustahkamlab borish;

b) rasmga qarab og'zaki masala tuzdirib, yechish.

Daraxtda 3 ta chumchuq o'tirgan edi, uni yoniga yana 2 ta chumchuq uchib keldi. Toping do'stlarim! Hamma chumchuqlar nechta bo'ldi? Daraxtda 3 ta chumchuq o'tirgan edi, uni yoniga yana 2 ta chumchuq uchib kelsa, hamma chumchuqlar 5 ta bo'ladi;

d) hamma o'quvchilarning partasini ustida geometrik shakllar bor. Shunday topshiriq beriladi:

— 3 ta doiracha, 2 ta kvadrat qo'ying, hamma .geometri shakllar nechta bo'ldi?

— 5 ta geometrik shakl bo'ldi. 3 + 2 = 5 ta;

— 4 ta uchburchak 1 ta to'rtburchak qo'ying, geometrik shakllar nechta bo'ldi?

— 4 + 1 = 5 ta;

— 1 ta kvadrat, 1 ta uchburchakdan uycha yasang;

— 1 ta to'rtburchak, 1 ta uchburchakdan ham uycha yasash mumkinmi?

— 1 ta to'rtburchak, 2 ta doirachadan aravacha yasang.

Evaluation

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. Darslikning 29-betidagi 1-misolga o'quvchilar diqqatini tortish.

— Rasmda nimalarni ko'rayapsiz? Qo'ziqorinlar nechta?

— 5 ta qo'ziqorindan 1 ta qo'ziqorinni olib tashlasak, 4 ta qo'ziqorin qolar ekan. 5 - 1 = 4 ; 5 - 4 = 1 .

2. 2-misolda esa rasmga qarab «0'ylab top!» o'yinini o'tkazish mumkin.

Tulki bolasi ipni dumalatib, [5-2| misolning oldiga borib qolibdi. Demak, shu misolning javobini topishga yordam berishimiz kerak. 5-2 = 3.

Mushuk bolasining oldida bir kalava ip, ip yonida misol berilgan. Misol: «Meni hisoblab, javobimni top!» deb turibdi. Ke-ling, bolajonlar, mushukka yordam berib yuboraylik, misolning javobini topolmay hayron bo'lib turibdi. Demak, 5 bilan 3 ning ayirmasi 2 ekan. 5-3 = 2.

3. 3-misolda nimalarni ko'rayapsiz?

a) hammangizning partangiz ustida geometrik shakllar bor. Shulardan 5 ta doirachani ketma-ket terib qo'ying, undan 1 tasini olib qo'ysangiz nechta doiracha qoladi?



5 - 1 = 4 ta doiracha.

b) 5 ta kvadratni ketma-ket terib qo'ying, shundan 4 tasini olib qo'ysangiz nechta kvadrat qoladi.

^i r-/i r-/i r-yi



5 - 4 = 1 ta kvadrat.

Evaluation

— Nima uchun doiracha deymiz?

— Doirachaning burchagi yo'q.

— Nima uchun kvadrat deymiz?

— To'rttala tomoni bir-biriga teng bo'lsa, kvadrat deb aytiladi. 4.

4-misolda sonlarni taqqoslashga o'rgatish.

I < 2 5>4 5 = 5 3>2

Demak,

5-1=4 5-3=2 5-2=3 5-4=1

1- O'quvchilarning e'tiborini darslikning 30-betidagi mavzuga qaratish. 'atish.

— 1-misoldagi rasmda nimalarni ko'rayapsiz? Ular nechta ekan?

3 ta tipratikan yoniga 2 ta tipratikan kelib qo'shilsa, hamma tipratikanlar 5 ta boiar ekan.

2. 7-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish.

| | | |
|---|---|---|
| 4+1=5 | 2 + 3 = 5 | 3+2=5 |
| 5-1 = 4 | 3 - 2 = 1 | 4-1 = 3 |

4. 10-misolda esa qanday geometrik shakllar borligini so'rab aniqlash.



O'quvchilarning har birining partasi ustida geometrik shakllar] bo'lib, ulardan yuqorida terib qo'yilgan shakllarni joylashtira bilishlari kerak. Demak, 3 ta kvadrat ichida doirachasi bilan, 2 ta doiracha ichida uchburchagi bilan ekanligini ko'rib, o'zlari bajar-gan.topshiriqlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga iqror bo'lishlari kerak. Nima uchun kvadrat, nima uchun uchburchaklar, nima uchun doiracha deb atalishiga javob topa olishlari zarur. Kvad-ratning hamma tomonlari bir-biriga teng, uchburchaklarning esa uchta tomoni, uchta burchagi, uchta uchi bor.

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 20-betidagi topshiriqni bajarish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilarning bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchi-larni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 5-sonidan yozib kelish.

Evaluation

**<u>29-dars</u>**

## MAVZU: 6 SONI BILAN TANISHTIRISH

**Darsning maqsadi:**

1) o'quvchilarning 1, 2, 3, 4, 5 sonlari haqida egallagan bilimlarini puxtalab borish;

2) 6 soni haqida bilim berib, misol, masala ishlash.

**parsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) didaktik materiallar;
e) mavzuga mos rasm; geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.
2. «0'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida:

a) «0'ylab top!» o'yinini o'tkazish. Bu o'yin quyidagicha o'ynaladi. Men bir son o'yladim, ana shu oylagan sonimga 1 ni qo'shgan edim 5 hosil boidi, men o'ylagan sonni toping; men bir son o'yladim, shu o'ylagan sonimdan 4 ni ayirgan edim 1 hosil boidi; men bir son o'yladim, shu o'ylagan sonimga 2 ni qo'shgan edim, 4 hosil boidi, men o'ylagan sonni toping. O'yin shu tariqa bir necha marta takrorlanadi;

b) kartochka yordamida savol-javob o'tkazish.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **4+ 1** = ?  3 + 2 = ? | 5-4 = ? | **2 + 3 =** | 2 + *2* = ? |

Ana shu kartochkadan birinchisiga og'zaki masala tuzdirish: Birinchi likopchada 4 ta behi, ikkinchi likopchada 1 ta behi bor. Ikkala likopchada nechta behi bor?

Topishmoqli masala tuzdirish mumkin:

*Oppoq tovuq don cho'qir, Suv ichadi qorasi, Necha tovuq bo'ladi, Qo'shilganda olasi.* (3 ta)

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'rganilgan sonlarni ketma-ket to'g'ri va teskari sanatish:

1, 2, 3, 4, 5;  5, 4, 3, 2, 1;

5 sonidan keyin 6 soni kelar ekan deb, o'quvchilarning diqqatini darslikning 31-betidagi mavzuga qaratish. J5 + 1 = 61

1 |SI

2 4 3

- """""" 6 bu, bitta 1, bitta 5 ning yig'indisi yoki uning teskarisi — •> bilan I-

Evaluation

— 6 bu, bitta 2, bitta 4 ning yi^'indisi yoki uning teskarisi -. 4 bilan 2;

— 6 bu, ikkita 3 ning yig'indisidan iborat ekanligini o'yin* choqlar, turli predmetlar yordamida tushuntirish.

2. 1-masalani og'zaki va yozma ravishda bajarish. 5 ta qizi atirgulga 1 ta sariq atirgulni qo'shsak, hamma guilar 6 ta bo'ladi Kimning uyida qanaqa guilar borligini savol-javob orqali aniqlash foydadan xoli emas.

3. 2-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish.

| | | |
|---|---|---|
| 5+1=6 | 1 + 5 = 6 | 2 + 4 = 6 |
| 6-1=5 | 6 - 2 = 4 | 6 - 4 = 2 |

6 soni 5 dan bitta ortiq, 5 soni 6 sonidan bitta kam ekanligin sanoq cho'plar yordamida tushuntirish.

4. 3-misolda esa, birinchi qatorda 2 ta mashina, ikkinchi qatorda 4 ta mashina bo'lsa, hamma mashinalar nechta bo'lganini top^ tirish. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, hamma mashinalar 6 ta.

5. Har bir o'quvchining partasini ustida geometrik shakllar bo'ladi. Ana shu shakllar yordamida 4-misolda ko'rsatilgan shakl-j larni o'rniga qo'ydirish uchun amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. [



Evaluation

— Qanday figuralar hosil bo'ldi?

— Uchburchak, qayiqcha, uycha, kvadrat...

— Bu figuralarni yasashda qanday shakllardan foydalandingiz?[

— Bu figuralarni yasash uchun uchburchak, kvadrat, to'rtbur-| chaklardan foydalanildi.

— Kvadrat deb, uchburchak deb nimaga aytiladi?

— To'rttala tomoni bir-biriga teng bo'lgan shakl kvadrat deb| aytiladi; uchburchakning uchta tomoni, uchta burchagi, uchta uchi bor ekan.

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 21-betidagi topshiriqni bajarish-6 sonidan 4 qator yozish, berilgan misollarni olmalar timsolida javobini topish.



1+5=6 6 - 1 = 5 6-4=2

parsni yakunlash.

O'quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Uyga vazifa. 6 sonidan yozib kelish.

30-dars

MAVZU: 6 SONINI MUSTAHKAMLASH

Darsning maqsadi:

1) o'quvchilarning 1, 2, 3, 4, 5, 6 sonlari haqida egallagan bilimlarini puxtalab borish.

2) 6 sonini mustahkamlash orqali o'quvchilarni bilimdon, hozirjavoblik fazilatlarini rivojlantirib borish.

Darsning **turi:** Aralash.

Darsning **jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) sonli kartochkalar;
e) geometrik shakllar.

Darsning **borishi:**

1. O'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida matematik diktant o'tkazish. Buning uchun har bir o'quvchining partasi ustidagi sonli kartochkalar yordamida bajarish kerakiigi tushuntiriladi. Masalan:

a) 2 bilan 2 ning yig'indisini yozing;
b) 4 bilan 2 ning yig'indisini yozing;
d) 6 bilan 1 ning ayirmasini yozing;
e) 3 bilan 3 ni taqqoslang.

**Yangi mavzuni bay on etish.**

1- 5-masala rasmga qarab og'zaki masala tuzdirib, yechish.

Evaluation

— Hovlida 4 ta chumchuq donlayotgan edi, ularga yana 2J chumchuq qo'shilsa, hamma chumchuqlar nechta bo'ladi?

— Hovlida 4 ta chumchuq donlayotgan edi, ularning yonig yana 2 ta chumchuq kelib qo'shildi. Hamma chumchuqlar 6 bo'ldi. 4 + 2 = 6 ta chumchuq.

— Agar chumchuqlardan 2 tasi uchib ketsa, hovlida necht chumchuq qoladi?

— Agar chumchuqlardan 2 tasi uchib ketsa, hovlida 4 chumchuq qoladi. 6 - 2 = 4 ta chumchuq qoladi.

2. 6-misolni og'zaki bajarish.




a) 6 bilan 5 ning ayirmasi 1 ga teng; 6 bilan 4 ning ayirma 2 ga teng; 6 bilan 3 ning ayirmasi 3 ga teng; 6 bilan 2 nin ayirmasi 4ga teng;

b) 2 bilan 2 ning yig'indisi 4 ga teng; 3 bilan 2 ning yig'indis 5 ga teng; 4 bilan 2 ning yig'indisi 6 ga teng; 1 bilan 2 ning yig'indis 3 ga teng, deb har birini alohida-alohida ta'riflab berish lozim.

3. 7-misolda esa nechta yashil, nechta sarg'aygan barglar bor ligini aytib berishlari lozim.




Evaluation

4. 8-misol jadval asosida berilgan ekan. Uni qanday bajaris kerakligini o'qituvchi tushuntirib beradi.

| + | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | |

Buning uchun 6 ni hosil qilish uchun 1 bilan 5; 2 bilan 4; bilan 3; 4 bilan 2; 5 bilan 1 deb olish mumkin. Demak, bo'sl

. rchalarga 5^ 4^ 3^ 2, 1 sonlarini qo'yish kerak ekan, qiziqarli moni shundaki, teskari berilgan sonlar ketma-ketligi paydo boiar ekan.

5. lO-misoldagi shakllarni har bir o'quvchi partasining ustidagi shakllardan foydalanib bajaradi.



— Qanday shakllarni yasadingiz? Nomlarini aytib bering.

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 22-betidagi vazifani bajarish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilarning bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchi-larni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** Darslikning 32-betidagi 9-misol. **31-**

**dars**

**MAVZU: 7 SONI BILAN TANISHTIRISH**

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

a) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish.

b) 7 soni bilan tanishtirish, uni o'rni, yozilishi va o'qilishi haqida bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

a) mavzuning mohiyatini o'quvchilar ongiga yetkazib berishda turli usullardan o'rinli foydalanib, yangi texnologiya asosida yakka, ¦ juft, jamoa bo'lib o'quvchilarni darsga jalb etish orqali, o'quvchi-arda topqirlik fazilatlarini tarbiyalab borish;

°) o'quvchilarni matematika faniga qiziqishini orttirib borish.

**Darsning rivojlantirish qismi:**

Dars mobaynida o'quvchilarni hozirjavoblik, chaqqonlik qobili-yatlarini rivojlantirib borish.

Evaluation

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob, o'yin.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) sonli kartochkalar; e) geometrik shakllar;
e) vagonlar maketi; magnit taxtacha;

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

a) «Doiraviy misollar» o'yinini o'tkazish.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1 + 2 | 3 - 1 | 2 + 3 | 5 + 1 | 6-3 |

O'qituvchi bu o'yinning qoidasi bilan tanishtiradi. 1 bilan ning yig'indisi 3 hosil bo'ladi; 3 bilan 1 ning ayirmasi 2; 2 bila 3 ning yig'indisi 5; 5 bilan 1 ning yig'indisi 6; 6 bilan 3 nin ayirmasi 3 hosil bo'ladi.

— Bu nima uchun doiraviy misollar deb ataladi?

— Chunki bu misollarning birini javobi ikkinchisining bosh lanishi ekanligi ko'rinib turibdi. Bu, doiraviy misol deb atalishininj ham boisi shunda.

Evaluation

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'quvchilarning diqqatini darslikning 33-betidagi mavzug qaratish. 7 soni 6 sonidan keyin kelishini sonli kartochkala yordamida tushuntirish.

| | | |
|---|---|---|
| 0 0 S S S | 6 7 | 6 + 1 = 7 |

7 soni 6 sonining orqa qo'shnisi, u 6 dan 1 ta ortiq bo'lgai son. 6 bilan 1 ning vig'indisidan 7 hosil bo'lishini tushuntirish^







7 hosil qilish uchun 5 bilan 2; 3 bilan 4; 2 bilan 5 deb olisl mumkin. Yana 7 hosil qilish uchun nima ish qilish mumkinligin o'quvchilarga toptirish.

7 l-misolni og'zaki bajarish, bo'sh kataklarga mos son qo'yib, misollarni o'qitish.

| | | |
|---|---|---|
| 5+l=6 | 6 + 1 = 7 | 7-6=1 |
| 6-1 = 5 | 1 + 6 = 7 | 7-1=6 |

3. 3-misolda, vagonlarga yozilgan misollarni o'qitib, javobini toptirish-




Har bir vagonga yozilgan misollarni to'g'ri o'qib, javobini topib, aytib berishlari kerak. Ya'ni 7 bilan 5 ning ayirmasi 2; 2 bilan 4 ning yig'indisi 6; 6 bilan 3 ning ayirmasi 3; 3 bilan 2 ning yig'indisi 5; 5 bilan 3 ning ayirmasi 2; 2 bilan 5 ning yig'indisi 7; 7 bilan 6 ning ayirmasi 1 ekan. Partalari ustida turgan geometrik shakllardan parovoz, vagonchalarni bir tizimga qo'yib yasattirish mumkin. Bu amaliy mashg'ulot 7 soni haqida egallagan bilimlarini puxtalashga yordam beradi.

4. 4-misolni ham amaliy mashg'ulot orqali tushuntiriladi.



— Qanday shakllarni ko'rayapsiz? Nomini ayting.

— Kvadrat, beshburchak, oltiburchak, yettiburchak.

— Ular nima uchun shunday deb nom olgan?

— Shakllarning har bir tomonini sanab, to'g'riligiga iqror bo'lishga o'rgatish.

So'ng, bu shakllarni sanoq cho'plar yordamida ham yasash mumkinligini tishuntirish (amaliy mashg'ulot o'tkazish). **Daftar bilan ishlash.**

a) «Matematika daftari»ning 23-betidagi topshiriqni bajarish haqida tushuncha beriladi. Ya'ni 7 sonining yozilishi doskada ko'rsatib beriladi;

b) 7 sonini havoda yozib mashq qilish, so'ng daftarda yozdirish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 7 sonidan yozib kelish.

Evaluation

**32-dars**

## MAVZU: 7 SONINI MUSTAHKAMLASH

**Darsning maqsadi:**

a) 7 sonining hosil bo'lishi va uning belgilanishi haqida bolalar egallagan bilimlarini mustahkamlash;

b) o'rganilgan sonlarni taqqoslashga o'rgatish;

d) sonlar tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish;

e) o'quvchilarning qiziqishi va faolligini oshirish.

**Darsning turi:**

Mavzuni yoritishda aralash turdan — rivoyat, hayotiy personajlardan o'rinli foydalanish.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;

b) mavzuga mos rasm, magnitli taxtacha;

d) geometrik shakllar;

e) sanoq cho'plar, raqamlar tasvirlangan kartochka.

Evaluation

**Darsning borishi:**

1. O'tilganlarni mustahkamlash maqsadida «Koinotga uchamiz>> o'yinini tashkil etish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. O'yin quyidagicha o'tkaziladi: ko'krak oldidan qo'lni asta-sekin yuqoriga harakatlantirib, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 deb bosh qismgacha olib chiqiladi, so'ng biz koinotga yetib keldik, endi bizga pastdan qo'ng'iroq bo'layapti, demak, yerga qo'nishimiz kerak ekan, — deb bosh qismdan qo'lni ko'krak tomonga, ya'ni pastga harakatlantirib, 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1 deymiz. Bu o'yin jarayonida o'quvchilar 10 soni ichida to'g'ri va teskari sanashni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bu sonlar orasidan 7 ra-qamigacha yozishni o'rganganimizni ta'kidlaymiz.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

**Darslik bilan ishlash.**

1. Biz oldingi darsda 7 soni bilan tanishgan edik, bugun biz ana shu 7 soni ustida egallagan bilimimizni mustahkamlaymiz. O'qituvchi tandirda pishgan issiq nonni ko'rsatib: kirn darsda faol qatnashsa, bir burda nonni yeyishga muyassar bo'ladi, deb o'quv-

hilarni qiziqtirishi kerak. Buning uchun o'quvchilar diqqatini Harslikning 34-betidagi rasmga qaratamiz. O'quvchilarni non haqidagi bilimlarini aniqlash maqsadida quyidagi savol-javobdan foydalanamiz (rasmni magnit taxtasiga yopishtirib qo'yish uchun kattalashtiriladi).

— Rasmda kimlarni ko'rayapsiz? Ularga ism qo'yib, gapirib bering.

— Mastura aya tandirda non yopayapti, onasiga o'g'illari Aziz, Akbar, Avaz yordam berishyapti.

— Aziz nima olib kelyapti?

— Aziz tandirni qizdirish uchun o'tin olib kelyapti.

— Akbar bilan Avaz nima qilyapti? Nonlarni sanang.

O'quvchilar: — «Ular nonni dasturxonga qo'yishayapti. Dasturxonda 5 ta non bo'lsa, Akbar bilan Avaz bittadan non qo'ysa, 7 ta non bor ekan», deb javob beradilar.

— Mastura aya tandirdan uzayotgan nonini savatga qo'ysa, nonlar nechta bo'ladi? Savatdagi nonlarni sanang.

— Savatda 6 ta non bor edi, Mastura aya tandirdan uzayotgan nonini savatga solsa, hamma nonlar 7 ta bo'lar ekan, deb javob beradilar.

Sinfdagi o'quvchilardan birini ona, 3 ta o'quvchini o'g'illari qilib, rollarga bo'lib ijro etish bu mavzuni yoritish uchun yaxshi samara beradi. Shunday qilib, kichik hikoya tuzish orqali ham onalarning mehnati, nonning kelib chiqish tarixi, 7 soni haqida egallagan bilimlari puxtalab boriladi.

Non rizqu ro'zimiz, uni hech qachon nobud qilmasligimiz kerak, onalar mehnatini qadrlashimiz kerak, deb mehnat qilishga da'vat etamiz. So'ng «Non nashidasi» qo'shig'ini kuylaymiz:

*Non yopganda, non yopganda,*
*Mening oyim, mening oyim,*
*Kichik kulcha, kichik kulcha,*
*Yopar doim, yopar doim.*

*Kulcha juda mazali,*
*Sedanali, jizzoli.*
*Yegan sarim yegim kelar,*
*Rahmat, oyi, degim kelar.*

Maqollardan toptirish va uni hayotga tatbiq etish kerakligi tushuntiriladi. «Nonning o'zi ham non, uvog'i- ham non»...

2. 8-misolni yozma ravishda bajarishga o'rgatish.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3+4=7 | 7 - 4 = 3 | 1+6=7 | 6+1=7 |
| 4+3=7 | 7 - 3 = 4 | 6-1=5 | 5+2=7 |



Evaluation

3. 9-misolni og'zaki bajarish uchun o'quvchilar e'tiborij rasmga qaratamiz.

— Qanday mashinani ko'ryapsiz? Nomini ayting.

— «Matiz».

— Yana qanaqa mashinalar bor? Nomini ayting.

Bu misollarni bajarish uchun mashinalarning rangiga qarj o'quvchilarga bo'lib beriladi, o'quvchilarni faollashtirish uchi qaysi rangdagi mashina manzilga birinchi bo'lib yetib kelar efo

(Magnit taxtachaga mashinalar rasmini yopishtirib qo'yij mumkin.)

Dilshod ikkinchi mashina turgan joyga yetib olishi uchi

I 6 + 1 = 7 I, deb javob berishi kerak, Fazliddin uchinchi mashii turgan joyga yetib olishi uchun I 7-2 = 5 |? deb aytishi ken Jahongir to'rtinchi mashinaga yetib olishi uchun | 5 +1 = 6.', d aytsa, Bahodir esa beshinchi mashinaga yetirjT olish uchu

6 ~4 = 2, deb javob beradi, nihoyat, beshinchi mashina birinchi mashinaga yetib olishi uchun 2 + 4 = 6, deb javob berishi lozim O'yinni shu tariqa 3—4 marta takrorlash mumkin. Bu o'yinn boshqacharoq o'tkazish uchun ko'kraklariga mashinaning rasmini yopishtirib qo'yib, mashina bo'lib ovoz chiqarib harakatlanadilar albatta, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish kerakligi uqtiriladi. (Mashina rasmini chizdirish mumkin.)

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 24-betidagi vazifani bajarish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilar bilimini baholash, dars davomida faol qatnashgaf o'quvchilarni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.**

Daftarga 7 raqamidan 3 qator yozish, 7 soni ichida misolj masala yechishni o'rganib kelish.

## 33-dars

### MAVZU: 8 SONI

**Darsning maqsadi:** 7 soni ichida misol va masala yechish, raqami bilan tanishtirish. «Bog'da» mavzusida masala, hikoya tuzishga o'rgatish.



Evaluation

**parsning turi:** Aralash.

Pars **jihozlari:**

a) magnit taxtacha, bog'ning rasmi;

b) sanoq cho'plar.

**parsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilarning sonlar qatori haqidagi bilimlarini mustahkamlash:

— 7 soni qaysi sondan keyin keladi?

— 7 soni 6 sonidan keyin keladi.

2. Quyidagi she'rni yodlatish:

*Boshga tutib soyabon,*
*Belbog 'cha bog 'laganman.*
*Hisob-kitobga do 'stlar, 0*
*'zimni chog 'laganman.*

3. Endi «Quvnoq vagonlar» o'yinini o'ynaymiz, deb o'quvchi larning qo'liga 1 dan 7 gacha yozilgan kartochkalar tarqatib chiqiladi. O'quvchilar kartochkalarni olgach, o'z o'rinlarini topib, turib olishlari kerak.

"i nri \~FI r

1 2 3 14 5 6 7

O'quvchilarga murojaat etib, to'g'ri turib olgan bo'lsalar, raqamlarni taqqoslashlari so'raladi. Masalan, o'qituvchi 3 bilan 4 ni ko'rsatsa, o'quvchilar quyidagicha javob berishlari darkor:

3 raqami 4 dan 1 ta kam yoki 4 raqami 3 dan 1 ta ortiq, 3 soni 4 ning oldi qo'shnisi, 4 soni 3 ning orqa qo'shnisi.

**Yangi mavzu ustida ishlash.** 1—8 sonlar ketma-ketligini to'g'ri va teskari tartibda sanash. 7 sonidan keyin 8 soni kelishini tushuntirish, 8 soni bilan tanishtirish.

O'qituvchi o'quvchilarga 8 sonining tartibi, uni turli predmetlar yordamida tushuntirishi lozim.

| 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 7 + 1-8 |
|---|---|---|---|---|---|

2 h ibU, bitta 6 va bitta 2 ^^ yte'indisi yoki uning teskarisi — b^lan 6 ning yig'indisi;

3 hn U, bitta 5 va bitta 3 ning y^'indisi yoki uning teskarisi — Uan 5 ning yig'indisi;

8 bu, bitta 7 va bitta 1 ning yig'indisi yoki uning teskarisi J 1 bilan 7 ning yig'indisi;

8 bu, ikkita 4 ning yig'indisidan iborat ekanligini turli o'yjj choqlar, geometrik shakllar yordamida tushuntirish mumkin.

**Darslik bilan ishlash.**

Darslikning 35-bet 1-misoldagi rasmga qarab suhbat o'tkazi$ O'quvchilarni faollashtirish maqsadida bolalarning har biriga is qo'yib, alohida-alohida gaplar tuziladi. Shunda olma bog'i haqi<j sonlar qatnashgan kichik hikoya hosil bo'ladi. 4 ta qiz bola, 4 o'g'il bola bog'da ishlayotgan bo'lsa, hammasi bo'lib 8 ta bo borligini sanab, aytib berishlari lozim. 8 — juft son bo'lib, 7 da keyin kelishi tushuntiriladi.

O'qituvchi «Bog'da» o'quvchilarning mehnati bilan tanishtirat Ularning bilimlarini puxtalash maqsadida quyidagi savollarda foydalanish mumkin:

— Bog'da nimalar pishgan ekan?
— Bog'da olmaiar pishibdi.
— Olmalarni yig'ib-terib olishda kimlar yordamlashayapti?
— Olmalarni terib olishda o'quvchilar yordamlashmoqdalar
O'quvchilarga ism qo'yib gapirib bering.
— Ular tergan olmalarini nimalarga joylashtiryaptilar?
— Ular tergan olmalarni qutilarga joylashtirayaptilar.
— Olmalarni inson hayoti uchun qanday foydasi bor? |
— Olmada inson salomatligi uchun zarur bo'lgan vitaminlar boi)

*Hoy olma, olma, olma, Meni ovora qilma,*
*Biroz egil, bo'y cho'zay, Olmangdan uzib*
*olay.* 2-misolni og'zaki va yozma bajarish:

| | | |
|---|---|---|
| 7+1=8 | 5 + 3 = 8 | 4+4=8 |
| 8-7=1 | 8 - 3 = 5 | 8-4=4 |

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 25-betidagi vazifani bajarish.

Bo'sh kataklarda mustaqil arifmetik amallar bajariladi. 8 sonining yozilishi tushuntiriladi, doskada yozib ko'rsatiladi Ruchka ushlash qoidasini eslatib, daftarda yozish mashqi o'tkaziladi|

**Darsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchij larni rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 8 sonidan yozib kelish.

Evaluation

**34-dars**

## MAVZU: **8 SONINI** MUSTAHKAMLASH

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

O'quvchilami 8 soni ichida misol, masala yechish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, 8 sonining tarkibi va 8 soni ichidagi sonlarni taqqoslashga o'rgatish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Mavzuning mohiyatini yoritishda yangi texnologiya usullaridan noan'anaviy dars tashkil etish orqali o'quvchilarda hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash.

**Darsning rivojlantiruvchi qismi:**

O'quvchilami 8 soni ichida egallagan bilimlarini mustahkamlash orqali faolligini oshirib borish, mevalarning inson salomatligi uchun ahamiyati kattaligini his eta bilish fazilatini o'stirish.

**Darsning turi:** Aralash. Noan'anaviy dars turidan foydalanish.

**Darsning jihozlanishi:**

a) raqamli kartochkalar;
b) mo'jizakor olma daraxtining maketi, magnit taxtacha.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilarga 8 soni ichida egallagan bilimlarini boyitib borish maqsadida «Mo'jizakor daraxt» maketidan foydalanib dars o'tish. Oldingi darsda esa, «Bog'da» mavzusi asosida hikoya tuzilganligi eslatiladi. «Mo'jizakor daraxt» maketidan foydalanib dars boshlashdan oldin, bir rivoyat haqida hikoya qilinadi.

Qadim-qadimda bir podsho o'z lashkari bilan safarga otlanibdi. Ular yoi yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. lar bir cho'ldan o'tib borishayotgan ekan ko'chat ekayotgan bir £holga ko'zlari tushibdi. Podsho ko'chat ekayotgan cholning oldiga kel»b, shunday debdi:

Bu ekayotgan ko'chatingiz ildiz otib, ko'karib, hosil ber-SUnga qadar bormisiz-yo'qmisiz? Sizga nima zaril, — debdi. — To'g'ri aytasiz shohim, bu daraxt ildiz otib, ko'karib, meva erStinga qadar men narigi dunyoga safar qilgan bo'laman, ammo

Evaluation

bu mevadan kelajak avlod, farzandlarim tanawul qilayotganc «Alloh rahmat etgan bo'lsin!» desa, menga shu savobning o^ yetarli, debdi.

Podsho cholning aql bilan qilgan javobiga tasanno aytib, uns bir tillo tanga chiqarib beribdi. Choi tangani olayotib shunday debdjj

— Ana ko'rdingiz-mi? Ko'chat hali ildiz otmasdan, ko'kar. masdan, meva bera boshladi.

Podsho esa, cholning aytgan gaplariga qoyil qolib, yana bir tillo tanga beribdi. Choi shunday debdi:

— Sultonim, bu daraxtning hosilini narigi dunyoga ravona bo'lmasimdanoq shu dunyoda ko'ra boshladim. Podsho cholning aql-zakovatini ko'rib, lashkarlariga yo'lida davom etishini buyu-ribdi. Chunki, xazina torayib borayotganligi tabiiy hoi edi.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'quvchilar diqqatini magnit taxtachaga yopishtirilgan «Mo'-jizakor daraxt» maketiga qaratish. So'ng o'quvchilardan bittasini! chiqarib, daraxtdan 1 ta olmani uzib olish kerakligi aytiladi. Olma maketining orqasida 3 raqami yozilgan bo'ladi, uni o'quvchi* soni ekanligini aytib beradi. O'qituvchi bu 3 raqami darslikning 36-sahifasidagi 3-masalani og'zaki bajarib, rasm ostidagi misolni yechish kerakligini aytadi. 5 + 3 = 8; 8-5 = 3; 8~3 = 5. Yanaj bir o'quvchini doskaga chiqarib, daraxtdan yana bitta olmani uzibj olish kerakligi aytiladi. Olmani uzib olgan o'quvchi 4 raqamij yozilganligini aytadi. O'qituvchi shu sahifadagi 4-misolni og'zakij yechish kerakligini aytadi.

Evaluation

/N
V" "X X.  X
x. < 4 a-) 5
f\ y-
V"




* >

Har bir misolning javobini to'g'ri topgan o'quvchi, olrm yeya olishga muyassar bo'ladi deb o'quvchilar rag'batlantiriladi-

O'quvchilardan yana bittasi chiqib 6 raqami yozilgan olmani uzib oladi, unda esa choynaklarni taqqoslashga doir misollafj berilgan, ular bo'sh katak o'rniga >, <, = belgilarini **qo'yib** bajarishlari lozim. 8 > 7; 7 = 7; 7 < 8; 8 = 8. Yana bir o'quvchi chiqib, daraxtdan 1 ta olmani oladi, unda 7 raqami yozilgaflj

'ladi- O'qituvchi 7-misolda geometrik shakllar berilganligi, uni [3] birini tasvirlab berishlari kerakligini aytadi.



**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 26-betidagi vazifani bajarish.

**Darsni yakunlash.**

Oldingi o'tilgan «Bog'da» nomli hikoyaning davomi bo'lgan «Mo'jizakor daraxt» noan'anaviy dars hisoblanib, dars davomida faol qatnashgan o'quvchiJar baholab rag'batlantiriladi.

**Uyga vazifa.** Darslikning 36-betidagi 5-misol.

## 35—36-darslar

### MAVZU: 9 SONI

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarni 8 soni ichida misol, masala yechishga o'rgatish. 9 sonining hosil bo'Iishi, uning tarkibi va 9 soni ichidagi sonlarni taqqoslashga o'rgatish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanish:**

a) magnit taxtacha;
b) sonli kartochka.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilarning 8 gacha bo'lgan sonlar haqida olgan bilimlarini mustahkamlash. Masalan: 2 bilan 5 sonlarining orasida qaysi sonlar borligi; 8 dan oldin va 6 dan keyin qaysi son kelishini aruqlash; 8 ning chap va o'ng qo'shnisini aytib berishga o'rgatish.

3- 8 soni haqidagi quyidagi she'rni yodlash:

*Ipak qurti pillasiday Qo'sh*
*halqaman. O'zgarmas qiymat,*
*shaklim Oyoqosmon tursam*
*ham.*

Evaluation

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

1. O'qituvchi o'quvchilarga 9 sonini tartibi, tarkibi bilan tut predmetlar yordamida tushuntiradi. 9 soni 8 sonidan keyin kelisj] 9 soni 8 sonidan bitta ortiq ekanligini o'quvchilar ongiga yetkazj berishi lozim.

| | | |
|---|---|---|
| 4 5 | 7 8 19 | +1=9 |

2. O'quvchilarga 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri teskari sanatish, so'ng tarkibi bilan tanishtirish.

9 bu — bitta 7 va bitta 2 ning yig'indisi yoki uning teskarisi 2 bilan 7;

9 bu — bitta 6 va bitta 3 ning yig'indisi yoki uning teskarisi • 3 bilan 6;

9 bu — bitta 5 va bitta 4 ning yig'indisi yoki uning teskarisi ¦ 4 bilan 5;

9 bu — bitta 8 va bitta 1 ning yig'indisi yoki uning teskarisida iborat ekanligini didaktik materiallar yordamida tushuntirish.;

**Darslik bilan ishlash.** Darslikning 37-betidagi misol, masalani yechishga o'rgatisl

1. 1-misolni og'zaki bajarish.

Sport inson salomatligi uchun naqadar beqiyos ekanligi haqic suhbat o'tkazib, rasmga e'tibor bering bolajonlar, tartib bila to'g'ri turib olishlari darkor. 3 raqamidan keyin 4, 5 raqamli bo kelib turib olishi kerak, 7 raqamidan keyin esa 8 raqamli bo kelib turib olishini o'quvchilar topa bilishlari kerak.

Har bir sonning jufti borligi, 9 soni esa toq son ekanligi o'yinchoqlar yordamida tushuntirish;

9 soni ichidagi sonlarni taqqoslab, 9 soni 8 dan 1 ta ortiqligi* 8 soni 9 dan 1 ta kamligini ko'rsatish.

2. 2, 3-misolni og'zaki bajarish. 9 sonini hosil qilish uchun bilan 8; 2 bilan 7; 3 bilan 6; 4 bilan 5; 5 bilan 4; 6 bilan bilan 2; 8 bilan 1 deb olish mumkin.

Darslikning 38-betidagi 5-misolni og'zaki va yozma ravish bajarish kerakligi tushuntiriladi

| | | |
|---|---|---|
| + 1 | +2 | +1 |

Evaluation

5 bilan 1 ning yig'indisi 6; bu sonni kvadratning ichiga yozish raklig' tushuntiriladi, 6 bilan 2 ning yig'indisi 8; 8 bilan 1 ning a'indisi 9 ekanligi, bajargan ishimiz to'g'ri ekanligi tushuntiriladi. Tk-kinchi qatordagi misol ham xiddi shunday bajariladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9 | - 2 | -1 | -2 |

9 dan 2 ni ayirsak, 7 hosil bo'ladi, 7 dan 1 ni ayirsak, 6 hosil bo'ladi, 6 dan 2 ni ayirsak, 4 hosil bo'Iar ekan. Demak, darchaning o'rniga 7, 6 sonlarnini qo'ysak, bajargan ishimiz to'g'ri bo'Iar ekan, deb tushuntiriladi. O'quvchilarning o'zlariga ham xuddi shunga o'xshash misol tuzdirishga o'rgatib boriladi.

8-misolda esa, 9, 8 sonlarini hosil qilish uchun nima ish qilish kerakligi tushuntiriladi.

5 + ? X 3+n

\ ^

D + 4 7 + D



6 + D D + 2

n + 5 I + D

Evaluation

9 sonini hosil qilish uchun 5 bilan 4 ning yig'indisi; 3 bilan 6 ning yig'indisi; 5 bilan 4 ning yig'indisi; 7 bilan 2 ning yig'indisi deb olish mumkin...

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 27, 28-betlaridagi rasmlarni bo'yash ishlarini mustaqil bajarish. Geometrik shakllarning nuqtaiarini sanash bilan 9 sonini hosil qilish tushunchasi mustahkamlanadi. Bo'sh kataklarda mustaqil arifmetik amallar bajariladi.

2- O'quvchilarni 9 sonining bosma va yozma ko'rinishi bilan tanishtirish.

3- Doskada 9 sonini yozib ko'rsatish. So'ng daftarda yozishni mashq qilish.

**AJarsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchi-Iarm baholab rag'batlantirish.

... ^>**a vazifa.** 9 sonini yozib kelish, misolni bajarishni mashq

**37-dars**

## MAVZU: NOL SONI

**Darsning maqsadi:** Sonning qatordagi o'rni haqida tushunch, berish, misol va masala yechishga o'rgatish. **Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) sonli kartochkalar;
b) magnit taxtacha, olcha rasmi;
d) qutidagi rangli qalamlar, chizg'ich.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. «Mening o'rnim qayerda?» nomli o'yinni takrorlash.

5 soni 4 dan nechta ortiq, 4 soni 5 dan nechta kam? — deb sonlarni taqqoslash.

**Yangi mavzu ustida ishlash.** Nol soni bilan tanishtirish maqsadida amaliy mashg'ulot o'tkazish.

**Darslik bilan ishlash.**

**1.** Darslikning 39-betidagi mavzu ustida ishlash. 0, 1, 2, 3, 4,5.

0 ning o'rni qayerda ekan? Nol raqami sonlar qatorining boshida, 1 dan oldin yoziladi, deb ko'rsatiladi.

2. Shoxda nechta olcha bor edi, oxiri nima qoldi? Hech narsa qolmaganini tushuntirish.

3. Qutidagi rangli qalamlar nechta edi, oxirida nima qoldi? ***m*** deb, bo'sh kataklardagi sonlar toptiriladi.

4. 3 masalani og'zaki yechish. Tarelkada 3 ta nok bor edi, 3 tasini olib yeyilsa, tarelkada hech narsa qolmaydi degani bu 0 ekan deb tushuntiriladi yoki gul idishda 4 ta lola bor edi, ulardz 4 tasi ham so'lib to'kildi deganimiz hech narsa qolmadi. Bui quyidagicha ta'riflash mumkin: 3 - 3 = 0; 4-4 = 0.

**Daftar bilan ishlash.** «Matematika daftari»ning 29-betidagi top; shiriqni bajarish. Nol sonining yozilishi mashq qilinadi. Qutidagj qalamlarning navbat bilan kamayishini aytish va yozish orq< o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi mustahkamlanadi. Qatof; da tushib qolgan qalamlar o'rni to'ldiriladi va taqqoslash amall^ bajariladi. Daftardagi lasmga qarab, nol soni hosil boiishinii

Evaluation

t ki va yozma shakllarini o'rganish mashq qilinadi. Nol sonining °* ., ^o'lishiga doir arifmetik amallar bajariladi.

**narsni yakunlash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchi- ra g'batlantirish.

larm

**ijyga vazifa.** Nol sonidan ikki qator yozib kelish.

**38- .39-darslar**

## MAVZU: 10 SONI BILAN TANISHTIRISH

**Darsning maqsadi:**

1) o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini boyitib borish. 1 — 10 gacha bo'Igan sonlar haqida bilganlarini puxtalash.

2) 10 soni bilan tanishtirish, uning tartibi va tarkibi haqida bilim berish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi;
b) 1-sinf «Matematika daftari»;
d) sonli kartochkalar;
e) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

**1.** O'quvchilarni darsga jalb qilish.

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Mening 0 mini qayerda?» o'yinini o'tkazish. O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Sinfdagi o'quvchilarning qo'liga 1 dan 10 gacha yozilgan sonli kartochka tarqatib chiqiladi. So'ng bolajonlarga shunday topshiriq beriladi: qo'liga kartochka olgan o'quvchilar doska oldiga chiqib, o'z o'rnini bilib turib olishlari kerak. O'quvchilar qo'llari- agi sonli kartochkalarga qarab to'g'ri turib olishlari kerak. 1 raqamli o'quvchi birinchi o'rinda, 2 raqamli o'quvchi 1 raqamli quvchining yoniga chiqib turib olishi kerak, 3 raqamli o'quvchi ra qarnli o'quvchining yoniga chiqib turishi kerak. Xullas, qo'lida n ochkasi bor o'quvchilar quyidagi tartibda turib olishlari lozim:

4 5 6 7 8 9

5~-336



Evaluation

Quyidagi she'riy iboradan foydalanish mumkin:

*Shaklim o'xshar vergulga,*
*Oltiga qarindoshman,*
*Bir xonali sonlarga,*
*Shu yoshdan karvonboshman.*

Sinfda o'tirgan o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

— 2 soni 3 sonidan nechta kam, yoki 3 soni 2 sonidan nechta ortiq?

— 2 soni 3 sonidan bitta kam, 3 soni 2 sonidan bitta ortiq.

— 8 soni 7 sonidan nechta ortiq yoki 7 soni 8 sonidan nechta kam?

— 8 soni 7 sonidan bitta ortiq, 7 soni 8 sonidan bitta kam.

— Qani, o'rtoqlaringizni qo'lidagi kartochkaga qarab, to'g'ri va teskari sanab bering-chi. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10.

— To'ppa-to'g'ri sanadingiz. Biz 9 sonigacha o'rgangan edik, 9 dan keyin qaysi son keladi?

— 9 dan keyin 10 soni keladi.

Biz bugun 10 sonining yoziiishi va o'qilishi bilan tanishar ekanmiz.

**Yangi mavzuni bayon etish.**

1. O'quvchilar e'tiborini darslikning 40-betidagi mavzuga qaratish.




$9 + 1 = 10$

10 sonining tarkibi bilan tanishtiriladi:

10 bu — bitta 9 va bitta 1 ning yig'indisi yoki uning teskarisi 1 bilan 9;

10 bu — bitta 8 va bitta 2 ning yig'indisi yoki uning teskarisi 2 bilan 8;

10 bu — bitta 7 va bitta 3 ning yig'indisi yoki uning teskarisi 3 bilan 7;

10 bu — bitta 6 va bitta 4 ning yig'indisi yoki uning teskarisi 4 bilan 6;

10 bu — ikkita 5 ning yig'indisidan iborat ekanligini tun didaktik materiallar yordamida tushuntirish. 2. 1-masalani og'zaki bajarish.



Evaluation

L Birinchi likobchada 6 ta, ikkinchi likobchada 4 ta olxo'ri Ikkala likobchada nechta olxo'ri bor? 10_ Birinchi likobchada 6 ta, ikkinchi likobchada 4 ta olxo'ri

'lsa ikkala likobchada 10 ta olxo'ri bor. Buni quyidagicha fzohlaymiz: 6 + 4 = 10 ta olxo'ri.

3 2-misoldagi jadvalda berilgan misollarni og'zaki bajarish. in hosil qilish uchun 1 bilan 9; 2 bilan 8; 3 bilan 7; 4 bilan 6; , bilan 5; 6 bilan 4; 7 bilan 3; 8 bilan 2; 9 bilan 1 deb bo'sh Icataklarni o'rni to'ldiriladi.

4. 3-misolni og'zaki bajarish, bo'sh kataklar o'rniga mos sonlarni topib yechish.

8 + 2=10 7 + 3 = 10 6 + 4= 10

10_2 = 8 10-7 = 3 10-4 = 6

5. 5-masalada rasmda qarab masala tuzib, yechishga o'rgatish 6 ta qizil olmaga 4 ta qizg'ish olmani qo'shsak, 10 ta olma hosil bo'lar ekan yoki 8 ta olchadan 3 ta olchami uzib olsak, 5 ta olcha qolar ekan. Demak, 6 + 4 = 10 ta olma, 8 - 3 = 5 ta olcha deb ta'riflaymiz.

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 30-betidagi topshiriqni bajarish.

a) 10 sonining yozilishi bilan tanishtirish, uni doskada yozib ko'rsatish;

b) 10 sonini havoda yozib mashq qilish, so'ng daftarda yozdirish;

d) dars davomida qiynalgan o'quvchilarga yakka yordam ko'r satish.

**Darsni yakunlash.**

O'quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Uyga vazifa. 10 sonidan 4 qator yozib kelish.

Evaluation

**40-dars**

## MAVZU: SONNING QATORDAGI O'RNI

kari arSniDg maqsadi: 1—1o sonlar ketma-ketligini to'g'ri va tes-lar SaiJfs^' 10 soni ichidagi sonlarni taqqoslash va misol-masala-yechish malakasini mustahkamlash. **"arsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) 1-sinf «Matematika» darsligi, daftar;
b) mavzuga mos rasm (mushuk, xo'roz); d) geometrik shakllar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

a) o'quvchilarni 10 soni ichida olgan bilimlarini mustahk a, lash, turli didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning qo'liga qirqj raqamlarni berib, «Mening o'rnim qayerda?» o'yinini o'tkazis Adashib qolgan raqamlar o'rniga qo'yiladi;

b) 10 hosil qilish uchun yana nima ish qilish kerak? (9 ga 1 qo'shsak, 8 ga 2 ni qo'shsak, 7 ga 3 ni qo'shsak, 10 hosil bo'la va hokazo.)

3. She'rni yodlash.

*Qo'shni bo'lib ko'paydik, O'n*
*hissaga bir va nol,*
*Hisoblaymiz, sanaymiz, Berib*
*doim qo'lga qo'l.*

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

1,2, ,4, ,6, , 8, 9 — qaysi sonlar tushib qolgan, o'y toping, deb so'rash.

— Mushukchalar nechta? Xo'rozlar nechta? Ularning ham nechta? «Teng», «Shuncha» tushunchalarini mustahkaml Misollarni og'zaki yechish, daftarga yozish yoiini tushuntiri;

2. 4-misol og'zaki bajariladi.

— Qanday geometrik shakllarni ko'rayapsiz?

— Geometrik shakllarning qaysi birida raqamlar yetishmayap

— 3, 6, 8 raqamlari yetishmayapti, deb toptirishga o'rgatis

3. Darslikning 42~betidagi «Zinapoya» o'yiniga o'quvchilarni^ e'tiborini qaratish. Berilgan misollarni yechib, yuqoriga chiqila va pastga tushiladi.




Evaluation

nemak, har bir sonning o'z o'rni bor ekan, deb xulosa chiqa-

Daftar **bilan ishlash.** «Matematika daftari»ning 31-betidagi shiriqni bajarish. 10 ichida sonlarning yozilishi javoblari mos lean sonlarga chiziq tortib, yo'nalishini ko'rsatish. Mustaqil arifmetik amallar bajarish.

Darsni yakunlash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Uyga vazifa. 5-misolni bajarib kelish. She'rni yodlash.

43-dars

MAVZU: IKKITALAB SANASH

Darsning maqsadi: Ikkitalab sanashga o'rgatish. Juft va toq sonlar tushunchasini mustahkamlash. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning **turi:** Aralash, yangi mavzuni o'rganish.

Darsning **jihozlanishi:**

a) o'yinchoqlar (ayiqcha);
b) raqamli kartochkalar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish.
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

a) 10 soni ichida to'g'ri va teskari sanashni turli o'yinchoqlar yordamida mashq qilish.

Stol ustiga o'yinchoqlarni qo'yib sanatish.

— O'yinchoq mashinalar nechta? Sanang.
— Koptokchalar nechta?
— 10 ta koptok. Dam olish daqiqasi. *U shoxda 5 ta qush, Bu shoxda 3 ta qush, Uchib ketdi 2 ta qush, Shoxda qoldi nechta qush?*

*Javob: U shoxda 5 ta qush bo 'Isa, Bu shoxda 3 ta qush bo'Isa, Uchib ketsa 2 ta qush, Shoxda qoldi 6 ta qush.*

**Yangi mavzu ustida ishlash.**

ton talab 10 gacha sanash. Keyin ikkitalab sanash. So'ng H va juft sonlarni ajratishga o'rgatish.



Evaluation

1. 3, 5, 7, 9 toq sonlar ekanlig ni, 2, 4, 6, 8, 10 juft **sonjl** ekanligini narsalar (geometrik shakliar) yordamida tushuntirisK

2. Ikkitalab sanashni mashq qilish.

**Darslik bilan ishlash.** Darslikdagi mavzu ustida mashg'ulj o'tkazish. «Shaftolilarni 2 talab sanang».

— Nechta likopcha bor?

— Har birida nechtadan olxo'ri bor? — deb savol-javob o'tkazisJi

Har bir likobchada 2 tadan olxo'ri bor, buni quyidagicha izoh. lash mumkin:

2 + 2 + 2 + 2 + 2=10 ta olxo'ri bor ekan.

3. 2-misolni og'zaki va yozma ravishda bajarish:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2+2=4 | 6 + 2 = 8 | 3+2=5 | 7+2=9 |
| 4 + 2 = 6 | 8 + 2 = 1 0 | 5 + 2 = 7 | 1 + 2 = 3 |

4. 3-masalada ayiqchalar haqida og'zaki masala tuzib, yechishga o'rgatish.

**Daftar bilan ishlash.**

«Matematika daftari»ning 33-betidagi topshiriqni bajarish. ]

**Darsni yakunlash.** Darsda faol qatnashgan o'quvchilarn^ rag'batlantirish.

**Uyga vazifa.** 4~misol. Sonlarni taqqoslash malakasini oshirish^' ustida ishlash.

Evaluation

## 10 ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISH I

**49-dars**

### MAVZU: BIRNI KETMA-KET QO'SHISH VA AYIRISH

**Darsning maqsadi:** songa nolni qo'shish va sondan nolni ayirish haqida egallagan bilimlarini mustahkamlash, birni ketma-ket qo'-shish va ayirish to'g'risida bilim berish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning jihozlanishi:**

a) qo'lida pufak ushlab turgan qizchaning rasmi;

b) yong'oq va anor mevasi yoki rasmi.

**Darsning borishi:**

**1.** Darsni tashkil etish.

